

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA FAKUL'TETI

“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA” KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”

Pedagogika-psixologiya, defektologiya,
MTBS va musiqa bo'lim boshlig'i

_____prof.X.A.Meliyev

“ ____ ” _____ 2012 y.

51408000 – Pedagogika – psixologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun

**“TALABALARDA ISHONCH TUYG`USINI MUSTAXKAMLASHDA
PSIXOLOGIK METODLARNING O`RNI” mavzusida bajarilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISh I

Bajaruvchi: Yodgorov Isomiddin

Ilmiy rahbar:

Ishni himoyaga tavsiya etaman _____
(ilmiy rahbar ismi va sharifi) (imzo)

BMI “Pedagogika va psixologiya”
kafedra _____ sonli yig'ilish qarori bilan
(_____, _____ 2012 y) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: p.f.n. Alikulova M.M. _____
(Ismi va sharifi) (imzo)

Jizzax – 2012

MUNDARIJA

KIRISH

I-BOB. TALABALARDA ISHONCHNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIXATLARI

1.1. Ta'lim jarayonida talaba shaxsini o'rganish muammolari.....

1.2. Ishonch tuyg'usining psixologik xususiyatlari.....

II-BOB. TALABALARDA ISHONCH TUYG'USINI MUSTAXKAMLASHDA PSIXOLOGIK METODLARNING O`RNI

2.1. Talabalarda shaxslararo munosabat malakalarni shakllantirish

2.2. Shaxslararo ishonch - insonni ijtimoiy bilishning sub'yekti
sifatida.....

2.3. Talabalarda ishonch tuyg'usini shakllantirish motivatsiyasi.....

XULOSA.....

TAVSIYALAR.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ibn Sinoning qayd qilishicha, inson o'zining o'quv mashg'ulotlari boshlanishida, narsaning tashqi xossalarni o'rganishda, uning aslini va tasvirini qurib o'zicha bevosita bilimlarni xosil qilish mumkin. Har qanday fanda avvalo narsalarning ta'rifi zarur. Ularning mavjudligini esa provard natijasida isbotlash vositasida bilinadi. Chunki ular mazkur fan aniqlaydigan xodisalardan iborat bo'ladi. Ibn Sinoning ana shu xulosasi o'qitishdagi ko'rgazmalilikning faqat bir jihatini yoritadi xalos. Xulosada avvalo inson mavjud narsalarni yoki ularning tasvirlarini idrok etishi tufayli unda ob'ektiv voqeylik to'g'risida tasavvur xosil bo'lishi va inson ularni to'g'ri aks etishi ta'kidlanadi.

Olimning ta'limotida Ko'rgazmalilik tushinchasi idrok etishning har xil turlari – ko'rish, eshitish, sezish, va xokazo bilan bog'langan. Idrok etish tashqi sezgi orqali amalga oshadi va ushlab ko'rish bilan ham ro'y berpadi. Ishlab ko'rish sezilgan narsaning issiqligi, sovuqligi, namligi, quruqligi, qattiqligi, yumshoqligi, og'irligi, engilligi shakli va xakozolar bilish imkonini beradi. Teri va mushaklar sezgining quolidir. Nervlar ana shu kuchni mushaklar va teriga etkazadi.

Yan Amos Komeniskiy “Buyuk didaktik” nomli asarida “oltin qoida”ni ifodalagan. “O'quvchilar – deb yozadi u, sezib idrok etish mumkin bo'lgan narsalarni, albatta, sezgilar vositasibilan, xususan: ko'rish mumkin bo'lgan narsalarni ko'z bilan ko'rib, xidi bor narsani xidlab ko'rish, ta'mini ezish mumkin bo'lgan nasalarni – tatib ko'rib, ushlab sezish mumkin bo'lgan narsalarni ushlab bilib olishlari kerak... Birdaniga ko'p sezgilar yordamida idrok etish mumkin bo'lgan narsalarni iloji boricha, bir necha sezgilar yordamida idrok etish lozim”¹. Yan Amos Kamenskiy bu qoidalarning uchta asosini ifodalagan: Birinchidan, avvalo sezmagan narsa haqida bilib ham bo'lmaydi. Shuning uchun ham o'qitish narsalar haqida ko'proq muloxaza yuritishdan emas, balki narsalarni bevosita kuzatishdan boshlanishi kerak.

¹ Yan Amos Komeniskiy. Buyuk didaktika asari

Ikkinchidan, bilimning to'g'ri va aniqligi ham faqat sezgilarning guvoqligiga bog'liq. Demak, bilim sezgilarga qanchalik ko'proq tayansa, u shunchalik ishonchliroq bo'ladi. Bolalarga haqiqiy va mustaxkam ilm berish uchun, umuman hamma narsani bevosita kuzatish va sezgilar asosida o'qitilishi kerak.

Uchinchidan, sezgilar – xotiraning eng ishonchli vositasi. Agar kishi tuyani bir ko'rgan bo'lsa, bir marta qand egan bo'lsa, Rimga bir marta borib, uni diqhat bilan tamosha qilgan bo'lsa, bulbul xonishini bir marta eshitgan bo'lsa bularning hammasi xotirada mustaxkam qoladi va esdan chiqib ketmaydi.

Yan Amos Kamenskiy o'z muloxazasini mustaxkamlash uchun Pavlovning quyidagi fikrini keltiradi: “Eshitganini aytib beradigan o'nta kishidan o'z ko'zi bilan ko'rgan bitta guvox afzal”. Yan Amos Kameniskiy xulosasi – o'quvchini boshqalarning narsalar haqidagi kuzatishlari va guvoxliklarini emas, balki o'sha narsalarning o'zini bilishga va tadqiq etishga o'rgatish zarur.

Ta'lim - tarbiya ma'lum maqsadga qaratilgan, aniq dastur, reja asosida amalga oshiriladigan ongli faoliyat bo'lib, kishida shaxs fazilatlarini shakllantiradi. Talabalarda ishonch tuyg'usining shakllanishi va uning psixologik xususiyatlarini o'rganish, shu asosda insonni voqelikka, boshqa odamlarga, jamiyatga, ijtimoiy tuzumga ongli munosabatda bo'lishni o'rganadi; jamiyatda ishlab chiqilgan axloqiy, huquqiy, siyosiy, eстетik me'yor va masalalarni o'zlashtirish orqali jamiyatning faol a'zosi, shaxsiga aylanadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: O'quvchilarda ma'naviy tushunchalarni tarkib toptirishda dars jarayonining rolining pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish.

Tadqiqotning ob'yekti: O'quvchilarda ma'naviy tushunchalarni tarkib toptirishda dars jarayonining rolining pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti: Talabalarda ishonch tuyg`usini shakllantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni o`rganishning mazmuni, shakl, metod va vositalari.

Bitiruv malakaviy ishning vazifasi:

- Ta'lim tizimida ishonch tuyg`usini tarkib toptirishga doir bilimlarni uyg`unlashtirish;
- Ta'lim tizimida talabalarda ishonch tuyg`usini tarkib toptirishga shart-sharoit yaratish;
- Talabalarda ishonch, harixohlik tushunchalarga nisbatan qiziqish uyg`otish;
- Psixologik usullaridan o`rinli va mahorat bilan foydalanish;

Tadqiqotning metodologik asosi :

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta'lim-tarbiyaga oid asarlari, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash millik dasturi, Kamolot Yoshlar ijtimoiy xarakatining dasturi, "Mustaxkam oila" yili Davlat dasturi va mavzuga oid ilmiy psixologik, pedagogik, metodik manbalar.

Ishning tuzilishi va xajmi: ish 2 bob, 5 paragraf, xulosa, tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat

I-BOB. TALABALARDA ISHONCHNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIXATLARI

1.1. Ta'lim jarayonida talaba shaxsini o'rganish muammolari

Uzluksiz ta'limning xar bir bosqichida talabalarga ma'lum kasbiy xamda shaxsiy sifatlar tarbiyalanadi. Talaba shaxsining faoliligini yuzaga keltiradi. Ushbu jarayon ana shu xususiyatiga ko'ra rivojlantiruvchi ta'lim deb ataladi. Ayni o'rinda ta'lim jarayonini takomillashtirish, talabalarda mustaqil bilim olishga xizmat qiluvchi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy jihatdan puxta tayorgarlikka ega bo'lishlari ta'lim samaradorligini taminlashda muxum axamiyatga ega.

Bizning nazarimizda bo'lajak pedagog kadrlarning kasbiy tayorgarlik ko'rsatkichlari quydagi xolatlar bilan aniqlanadi;

- bo'lajak o'qituvchi tomonidan o'zlashtirilgan kasbiy bilimlarning sifati, ularda zaruriy ko'nikma va malakalarning shakilanganlik darajasi:

- ularning ma'naviy-axloqiy qiyofasi:

- ijodkorlik xislatiga egaliklari, pedagogik faoliyatni tashkil etishga nisbatan ijodiy yondasha olishlari:

- o'z ustida doimiy izlanishlar olib boorish ko'nikmalarining shakillanganligi:

O'qtuvchi bo'lajak o'qtuvchining kasbiy tayorgarligi pedagogik faoliyatni tashkil eta olish layoqatiga egaligi, tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilish jarayonini nazorat qilib turishi tahlil qilishi va baholab borishi lozim.

Bo'lajak o'qtuvchilarda ta'limning yangi konsepsiyasi shuningdek didaktik g'oyalar va pedagogik g'oyalar va ularning pedagogik amaliyotda qo'llay olish loyaqatini shakllantirish muxim pedagogik vazifalardan biri sanaladi. Ushbu jarayonda pedagogik faoliyatning ko'rgazmalilik, onglilik, faolilik, muntazamlilik, ketma-ketlik, nazariya va amaliyotning uzviyligi, ta'limning umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslanishi kabi xususiyatlarni namoyon etishga e'tibor kuchaytiriladi.

Quyidagi shakillar ta'lim jarayonidan samarali tashkil etishga xizmat qiladi, maruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar, tajriba, tadqiqot o'tkazishga asoslangan laboratoriya praktikumi, fakultativ, to'garak talabalarning ilmiy jamiyati, individual yoki guruhli maslahatlar (ular o'qituvchi shaxsiy tashabbusi yoki o'quvchilarning talablari asosida tashkil etiladi).

O'qitish shakllari: maruza:

O'qitish tizimi: maruza, pedagogik texnologiyalar.

Yangi amaliy metodlar: interfaol metodlar:

Interfaol metodlar talabalarning individual va yoshi xususiyatlari bilim darajasi, shaxsning rivojlanishi qonuniyati, ta'lim jarayonning moddiy-texnik taminoti, o'qituvchining kasbiy maxoratiga tayangan xolda qo'llaniladi.

Ayni vaqtda ta'limiy qadriyatlar mohiyatidan kelib chiqqan xolda ta'lim turlari va usullari mazmunan yangilanmoqda.

Ta'lim turlari: maruza, amaliy mashg'ulotlar, trening baxs - munozara, konferensiya, ekskursiya, taqdimot, bellashuv va boshqalar.

O'qituvchi mazkur jarayonning tashkilotchisi sifatida o'quvchilar bilan birgalikdagi faoliyat ko'rsatish zarur ta'lim (turlari va usullari mazmunan) jarayonida baxs – munozara, taxlil, suxbat, ta'riflash, xisobot va shu kabi shakllardan foydalana olishi lozim.

Rivojlantiruvchi ta'limni tashkil etish jarayonida quyidagilardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

-savol va topshiriqlar (o'quvchi va talabalar o'rtasida)

-yangi tushinchalarning mohiyatini ochib berish ularni o'zlashtirishning tushintirish:

-talabalarni mantiqiy fikrlarga yo'naltirish (ilmiy farazlarni ilgari surish, umumlashtirish, yakuniy xulosalarni chiqarish).

Ammo zamonaviy ta'lim jarayonida xam og'zaki bayon etish va ko'rgazmali metodlardan foydalanish o'qitishning asosiy metodlari xisoblanadi.

Ta'lim jarayonida avvalo maruza darslarini tashkil etishda (asosiy o'qitish shakli sifatida) pedagogik texnologiyalari samarali qo'llash mumkin.

Talabalarda o'zlarida o'qituvchi raxbarligida mustaqil ishlash va o'zlashtirilgan ma'lumotlarni tahlil qilish, kengaytirish- chuqurlashtirish, mustahkamlash va amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakillantirishga erishishlari lozim.

Mazkur o'rinda asosiy jihat talabalar tomonidan mustaqil ta'lim olishga qaratilgan amaliy faoliyat xisoblanadi.

Pedagogika oily o'quv yurtlarida xam uzuksiz ta'lim tizmining barcha bosqichlarida faoliyat olib borayotgan o'quv muassasalarida bo'lgani kabi ma'ruzalar nazariy bilimlarni bilishning asosiy shakli hisoblanadi.

Ma'ruza o'zida didaktik masalalarning muayyan to'plamini tashkil etadi. Ular qanchalik ko'p bo'lsa o'qituvchining maxorati shunchaki yaqqol namoyon bo'ladi.

Ayni vaqtda oily o'quv yurtlarida ma'ruzaning quydagi turlaridan foydalanilmoqda: kirish ma'ruzasi, axborot maruza, tanishtiruv ma'ruza, muammoli ma'ruza, konferensiya.

Kirish ma'ruzasida o'quv fani xaqida umumiy tushunchalar berilib unda kursning maqsadi va vazifalari uning o'quv fanlari tizimidagi mutaxassisni tayyorlashdagi roli va o'rni, kurs mavzusi, tashkiliy va metodik xususiyatlarida foydalaniladigan o'quv- metodik adabiyotlar, xisobot berish maddatlari va boshqalar bayon etiladi.

Ma'ruza-axborot, ilmiy axborotlarni o'z ichiga oladi. Sharxlov (obraz) li ma'ruzasi fan asoslari shuningdek fanlar o'rtasidagi aloqadorlikni ifoda etuvchi ilmiy bilimlarni tizimlashtrishdaga yo'naltiriladi. Ushbu ma'ruzaning kurs yoki bilimlarning ilmiy va konseptual asosga egaligi.

Muammoli ma'ruza talabalarni tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishga yo'naltirib ulardan muammoli masala yoki vaziyatni xal etishlari talab qilinadi.

Biroq ma'ruza suxbatdosh o'rtasidagi suxbat shaklidagi ma'ruza turi bo'lib u ikki nafar shaxs chunonchi "o'qituvchi-o'quvchi", "o'quvchi-o'quvchi", "ustoz va shogird", " o'qituvchi va talaba" ishtirokida amalga oshiriladi.

Ma'ruza-maslaxat, savol-javob va baxs-munozara asosida tashkil etiladi. Klassik ma'ruzalarda insonparvarlik g'oyasiga asoslangan "o'qituvchi va talaba" tizimiga muvofiq xamkorlik texnologiyasi yordamida qo'laniladi. Texnologik yondashuv asosida tashkil etuvchi ma'ruzalar talabalarning o'quv faolligi xamda intellektual ijodiy saloxiyatiga asoslanib amalgam oshiriladi. Ushbu ma'ruzalar o'zlarida quydagi xususiyatni namoyon etadi.

- o'quv xarakatlarni faollashtirish
- materialning mazmunini fanlar aro aloqadorlik asosida yoritish
- o'quv materialini ijodiy idrok etish
- musobaqalashish va o'quv o'yinlarini tashkil etish
- “jamoatchilik” metodlari (malumotlar, xabarlar, intervyu, taqrizli tushintirish va boshqalar);
- ochiq muloqot
- baxs-munozara
- xazil yordamida talabalarni faollikka chorlash
- fantaziya, ijodiy xayolni faollashtirish, o'xshatish (muayyan xarakatlarni ijtimoiy yoki tabiiy xodisalar bilan qiyoslash)
- fanlar
- xayotiy misollarga murojat etish

Nomlari qayd etilgan ma'ruzalar muayyan metodik maqsadlarni amalgam oshirishni nazarda tutadi. Chunonchi qiziquvchanlik, emotsional psixologik muxitni yaratish.

- muntazam idrok etish va mustaqil faoliyatni faollashtirish
- muammoli izlanish vaziyatni yuzaga keltirish
- kammunikativ vaziyatlarni yaratish
- talabalarning ozlarini namoyon etishlari uhun sharoit yaratish
- ragbatlantirish, mukofatlash, maqtash

Maruzaga quyidagi talablar qo'yiladi;

- malumotlarning yuqori ilmiy darajada bo'lishiga erishish;

Yirig hajimda aniq, ixcham tizimlashtirilgan, metodik jihatdan asoslangan, zamonaviy ilmiy ma'lumotlarni yoyish;

-Fikr –mulohazalarning asoslangaligi va dalil-isbotlar bilan boyitilganligi;

-dalil –isbotlar, misollar, matn va hujjatlarning yetarli darajada bo'lishi;

-fikrlarning aniq va mantiqiy ifoda etilishi;

-tinglovchilar fikrlarini faollashtirish;

-asosiy fikr qoida yoki xulosalarni ajratib ko'rsatish;

-atama, tushuncha, qoida, nazariya va boshqalarning mohiyatini ochib berish;

-talabalarga ma'lumotlarni eshitish, fikrlash va yozib olishga imkon yaratib berish;

-O'qituvchi va talabalar auditoriyasi o'rtasidagi aloqani yuzaga keltirish;

-didaktik materiallar va texnik vositalardan foydalanish;

-zarur o'rinlarda ko'rgazmali namoyish etish. jadval, sxema, grafik va namunalardan foydalanish;

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilayotgan ma'ruza muammoli ta'lim metodi yordamida talabalar faoliyatini takomillashtirish maksimal darjada faollashtirish imloniyatiga egaligi bilan ajralib turadi.

Bu kabi ma'ruzani tashkil etish jarayonida dastlab maqsad qayd etilib o'tiladi. Shakllantiruvchi masala , o'rganish obekti aniqlanadi, idrok etish faoliyatining muhimligini e'tibor qaratiladi, samarali usullar, metodlar va vositalar taklif etiladi, uning natijasi avvaldan qayd etiladi, maruza yakunida natijaning kafolatlanganligi o'raniladi.

Muammoli ma'ruzalarning mazmuniga quyidagi ;

-metadologik ahamiyatining yuqoriligi;

-zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishdagi ahamiyati;

-taqdim etilgan materialning yuqori ilmiy darajasi, uning aniq tizimlashtirish va muommolar qo'yilishi;

-ma'lumotlarning aniqligi, tushunarligi, dalil, misol va qo'shimcha materiallarning asoslanganligi va isbotlanganligi va ishlatilishi;

-talabalarni imkon qadar faollashtirish, asosiy ma'lumotlarni ajratish;

- talabalarni imkon qadar faollashtirish, asosiy ma'lumotlarni ajratish, fikrlash ularning shaxsiy fikriga ega bo'lishi, o'z nuqtaiy nazarini ximoya qilishi;
- muammoli vaziyatlarni ketma-ket, muayyan tartib bilan hal etish;
- talabalarni mustaqil idrok etish, intellektual-ijodiy faoliyat va evrestik suhbatga tortish.

Ma'ruza tarkibiga kiruvchi muhokama, suhbat, o'yin, tortishuv kabi pedagogic texnologiyalar yordamida ularning samaradorligi ortadi.

Ta'lim jarayonini ma'ruzaalar asosida tashkil etish har bir qator shartlarga muvofiq amalgam oshiriladi. Xullas;

- asosiy ma'ruzachi va opponentlar tanlash; ularning chiqishlari uchun matn tayyorlash;
- talabalarning mustaqilligi, o'qituvchining neytralliligiga erishish;
- aniq savollar asosida ma'lum tizimga asoslanuvchi yangi o'quv ma'lumotlarini puxta o'zlashtirishdagi yordam beruvchi dialogni uyushtirish;
- o'rganilayotgan obektni uning bog'likligini, aniq masalada alohida keltirish va hodisalar bo'lganida muhim hislatlari qonuniyatlarini tushuntirib berish;
- bayon etish, fikr yaratishning maniqiy bo'lishi va bosshqalar.

1.2. Ishonch tuyg'usining psixologik xususiyatlari

O'quvchining o'quv faoliyati kommunikatsion tabiatga ega bo'lib, unga pedagogik ta'sirning ko'pchiligi gurihiy kommunikatsiya vaziyatlarida amalgam oshiriladi. Tafakkur mustaqilligini shaxsning bilimlarini fikr predmetiga o'tkazish qobiliyati sifatida tushunish peagogik jarayonda muomalani qulay tashkil etishni talab qilad. Muomala-ijod psixologiyasida, odamlarning o'zaro bir-biriga ta'siri va o'aro harakati sifatida o'zaro bir-birini tushinish va hamkorlik jarayoni sifatida o'rganiladi. Insonlar orasidagi muomala insoniyat mavjudliginining zarur shartidir, chunki odamlar yolg'iz qolganlarida o'zlarin boshqacha tutishadi, o'zgalar bilan muomlaga kirishganlarida o'zlarini yanada noxush tutadilar. V.M.Bexterev guruxning shaxsga tasiri turlicha bo'lishni takidlagan.Undovchi insonning energiyasi boshqa odamlar mavjud bo'lganida ortishi faollashtiruvchi insonning

faoliyat jarayonida gurux azolaridan otta qolmaslikka intilish va yoqotuvshi gurux shaxs faoliyatining individualligini namoyish qilishini tormozlashi

V. M.Bexterev. M. V. Lange, V. E. Myasichev, F.Olloport, V.MYODE, A.Meyo, D. Moreno va boshqa psixologlarni tadqiqotlarida insonning ruxiy faolligiga ishchanlik qobilyatida shaxslararo munosabatlar insonlarning hamkorlikdagi faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatishni isbotlagan. Jamoada shaxsiy faoliyat natijalarini tahlil qilish o'rtoqlari faoliyati mahsullari bilan taqqoslanganda samaraliroq bo'ladi. G.I.Shukina F. D.Gorbovning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, ma'lum sharoitlarida jamoa bo'lib birgalikda ishlash o'zaro harakatda ishtirok etayotgan guruhning har bir o'zaro shaxsning shakillanishiga imkon beradi. Bu birgalikdagi faoliyat jipslashgan guruxlarda ro'y beradi. Bu haqda akademik A. I.Berg shunday deb yozadi. " inson faqat tashqi dunyo bilan to'xtovsiz muomola qilish sharoitdagina uzoq vaqt fikirlashi mumkin. Tashqi dunyodan to'liq information ajralish bu aqldan ozishning boshlanishidir. Informationsion undovchi tafakkurning tashqi dunyo bilan aloqasi insonga oziq-ovqatdek issiqlik zarur "

Muomala jarayonida insonlarning o'zaro bir-biriga ta'siri insonga so'z va harakatning ta'sirida ifodalanishi mumkin. Sotsiologlar og'zaki ma'lumotning inson psixikasiga ta'sirining harekteri va darajasiga bog'liq ravishda 3 xilini ajratadilar. 1. Xabar 2. E'tiqod 3. Ishontirish. E'tiqoddan farqli o'laroq ishontirish mantiqiy isbotlar tizimiga asoslanadi va ma'lumotni idrok qilayotgan shaxsga ongli munosabatda bo'lishni talab etadi. E'tiqoddan farqli ravishda ishontirishning xususiyati shundan iboratki, uning mantiqqa emas shaxs aqliga qaratilganligini, fikirlashga, hokum chiqarishga tayyorlikni emas, harakat qilish uchun yo'l-yo'riqni buyruqni olishga tayyorlikni shakllantirishdan iborat. Tabiiyki shuning uchun ham ishontirish mantiqiy isbotlar tizimiga va aytilayotgan ma'lumotning mazmuni chuqur anglashga muhtoj emas. Sotsiologiya va psixologiyada ishontirishning roli muammosini I. S. Kan, B. D. Pargin, B. F. Porshnev, A. P. Sapikov, V. E. Myasishchev, A. G. Kovalev, V. A. Bakuv va boshqalar o'rganganlar. Ishontirish mehanizmi

D. N. Uznadzening ustanovka nazariyasida ilmiy tavsiflab berilgan. A. S. Prangvishli, N. L. Eliava, SH. A. Nadirishvali va boshqalarning tadqiqotlari ustanovkada, ishontirish harakati tabiatini ko'rish, fikrlash ayniqsa mustaqil fikrlash o'ziga xos ijtimoiy ustanovkalar ta'sirida rivojlanishi tushunishga imkon beradi. Mustaqil fikrlash va ishontirishning aloqasi shunda ko'rinadiki tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi hukumlar har doim ochiq yoki yashirin shakilda tafakkur jarayoniga kiritilgan bo'ladi. Ishontirish kommunikatsion muomalaga tuzilishdagi boshqa tarkibiy qism taqlid qilish bilan bog'liq ishontirishga nisbatan taqlidchanlik kengroq tushunchadir. Muomalaning bu mexanizmlari o'rtasidagi farq shundan iboratki, taqlidchanlikda taqlid subekti faol hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ishontirishda tashabbus ishontirayotgan shaxs tomonidan bo'ladi. Taqlidchanlik faoliyat jarayonida atrofdagilar bilan faol o'zaro ta'sir va fikr almashinuv orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib taqlidchanlik va ishontirishning ijobiy roli shundan iboratki bu mexanizmlar orqali shaxsga ikki kanal bo'yicha ta'sir amalga oshiriladi; anglangan va anglanmagan V. A. Protseskiy taqlidchanlikni umumiy psixologiya nuqtai nazaridan o'rganib, taqlidchanlik jarayonida shaxsning mustaqilligi quyidagi ko'rinishini tavsiflagan; birinchidan taqlid qilish tashabbusi subektdan chiqadi, ikkinchidan taqlid obektini tanlashi, uchinchidan inson taqlid qilishga qarshilik ko'rsatishi va ongli ravishda mustaqillikka intilishi mumkin V. A. Protseskiyning fikricha, shaxsning umumiy rivojlanishi jarayonida taqlidchanlik va mustaqillikning ortishi va taqlidchanlikning yo'qolishi emas, balki mustaqillikning ham taqlidchanlikning ham sifat jixatdan qayta o'rganishida namoyon bo'ladi. Mustaqillikning nisbatan yo'qotilishi bilan bog'liq taqlidchanlik mustaqillik rivojlanishining omillaridan biri hisoblanadi. Shunday qilib taqlidchanlikni ijodga qarshi qo'yish mumkin emas. Fikr almashish jarayoni nutiqsiz amalgam oshishi mumkin emas. Nutq faoliyati fikr almashinuv ayniqsa o'quv faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mustaqil fikrlash tashabbuskor nutqning rivojlanishini talab qiladi. Ammo shuni nazarda tutish lozimki, nutq faoliyati maqsad hisoblanmaydi. Pedagogik-

psixologiyada mustaqillik “shaxsiy va guruxiy tuzulishida murakkab xarakteristika” sifatida V. A. Protseskiy rahbarligida bajarilgan, Yu.V. Yantaviskiy tadqiqotlarida o’rganilgan. Bu tadqiqotda ichki guruxiy munosabatlar omilining hamkorlikda amalga oshiriladigan mehnat faoliyatida kiritilgan shaxs mustaqillikning namoyon bo’lishiga ta’sir kuzatiladi. Tadqiqot maktab va kasb-hunar bilim yurti o’quvchilarida o’tkazilgan. Yu. Yantavskaya tajribalarida olingan natijalarida asosida quyidagi xulosaga keladi:

1. Mustaqillikning shaxs xislati sifatida vujudga kalishi ijtimoiy muxitga bog’liq. Bu bog’liqlik mustaqillikka bo’lgan ehtiyojini qondirish imkoniyatlari soxasida va qadiriyalarda ifodalangan mustaqillik mazmuni xarakterida ifodalanadi (bu imkoniyatlar vujudga kelgan ijodiy munosabatlar tizimiga ham kiradi).

2. Mustaqillikning shaxs xislati sifatida shakllanishida individual xususiyatlar shaxs yashaydigan va mehnat qiladigan jamoada vujudga kelgan munosabatlarga hamda shaxsning qobiliyatlariga uning faolligiga bog’liq bo’ladi.

O’quvchilar o’quv faoliyatini jamoa faoliyati sifatida tashkil qilishga ko’p vaqt unchalik e’tibor berilmadi. Bilimlarni o’zlashtirish jarayoni individual jarayon deb hisoblangan. Buning natijasida pedagogik-psixologiyada o’quvchilarning mustaqil fikrlashi va mustaqil faoliyati ishning individual shakllardagina ro’yobga chiqishi mumkin deb hisoblangan. Lekin Sobiq Ittfoq davrida davlatlarida shuningdek Polsha, Germaniya kabi mamlakatlardagi ilg’or o’quvchilarning ishlarida guruxiy bilish faoliyati har bir o’quvchiga darsda maksimal faollik va mustaqillikni taminlashini tasdiqlagan. So’ngi yillardagi tadqiqotlar tafakkur mustaqilligini individual bilish faoliyati sifatida ananaviy tushunishga jiddiy tuzatishlar kiritdi. Shunday qilib biz talabalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga muomala jarayonida ko’proq erkinlik berishimiz zarur.

Psixologiya faning boshqa jahon fanlari tizimidagi nufuzli o'ringa ega bo'lishi jamiyatda shaxs faoliyati hamda shaxslararo munosabatlar tizimining ijobiy tarzda shakllanishida o'ziga xos hissi bor.

Ma'lumki inson ruhiyati o'ziga xos murakkabliklarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ana shu murakkabliklarning shaxs tomonidan o'z vaqtida va to'g'ri tinglanishi uning kelgusi hayoti faoliyati va hatti-harakatini shu asosda boshqarish va nazorat qilish uchun ma'lum qulaylik yaratadi .

Masalan; yangi dunyoga kelgusn chaqaloq dunyo yuzini ko'rishi bilan idrokida tevarak-atrofn va unga mehr bilan termulib turgan kishilar muhitini aks ettira boshlaydi

Mutaxassislar fikriga ko'ra shaxsning o'z-o'zini boshqarishi ob'ektiv va sub'ektiv muhit talablariga moslashishi dastavval soda tug'ma instinktlar shartsiz reflekslar yordamida oddiy ta'sirlanish va taassurot tarzida namoyon bo'ladi. Yangi tug'ilgan chaqaloq o'z taraqqiyotining dastlabki davrlarida o'zligini anglay olmaydi, xatto bu jarayon yuzaga kelishi haqida mulohaza yuritish ham mumkin emas.

Bola katta bo'lgani sayin unda muayyan xususiyatlari holatlari orqali moddiy dunyoni tushunib boradi va o'z faoliyatining mazmun va mohiyatini anglab yetadi. Shu tariqa bolada o'ligini anglash davri boshlanadi.

Mashhur rus psixologi L.S.Vigatskiy ta'kidlaganidek shaxs ijtimoiy tarixiy taraqqiyotining muayyan bosqichida o'zini hayajonlantirgan taajubga solgan savollariga javob izlaydi.

Buning natijasida "Inson qanday fikrlaydi?" "Odam qanday paydo bo'ladi?", "Inson ruhiyati qaysi qonunlarga bo'ysunadi?", "Inson o'z-o'zidan ta'sir o'tkaza oladimi?" "O'zini-o'zi boshqarish nima evaziga kechadi?" kabi turli tuman muammolar yechimini qidirishga harakat qiladi. Muallifning fikricha ana shu harakatlar psixologik bilimlarni egallash uchun zaruriyat tug'diradi.

Olimlarning ta'kidlashicha insoniyatning bebaho ahamiyatga ega bo'lgan yutug'I tafakkurning kashf qilinishi bo'ladi. Avvalo kishilarning fikri, hayoli,

tashqi dunyoni egallash va unga munosabat bildirishga qaratilgan bo'lsa, tafakkur kashf etilgandan so'ng sub'ekt obekt (inson fikrlashi tashqi olamga qaratilgan) munosabati bilan birga sub'ekt-sub'ekt (insonning fikri o'zini anglashga, boshqarishga nazorat qilishga yo'naltirigan) munosabati ham asosiy faoliyatiga aylandi.

Demak yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib inson obyektiv olamni sub'ektiv tarzda aks ettirish (psixik qonuniyatlar) muammolarni aniqlashga intilib, tafakkur orqali o'zini- o'zi kashf etish, tadqiq qilishda murakkab faoliyatni amalgam oshirishga muvaffaq bo'ladi.

Xaqiqatdan inson o'z ichki olami xususiyatlari, o'ziga xosliklarini to'g'ri anglash, idrok qilish evaziga jamiyatda o'z o'rnini va mavqeiga ega bo'lishiga intiladi. Ana shunday xoslik ruhiy xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni inson turli usullar orqali egallaydi.

Xususan talabalik yillarida oiliy o'quv yurtlarida psixologik, pedagogika etika, estetika va shu kabi fanlar bilan tanishish talaba shaxsining shakllanishi unda o'ziga xos shaxsiy fazilatlar va sifatlarning shakllanishiga bevosita ta'sir etadi.

Masalan psixologiya darslarida "Bilish jarayonlari" mavzusini O'zlashtirish jarayonida mavzu yuzasidan umumiy ma'lumot olish bilan bir qatorda ularning mazmuni, kechishi, o'ziga xosligi hamda inson hayoti va faoliyati, xususan bilish faoliyatidagi ahamiyati haqida bilib oldilar. Bilish jarayonlarini ahamiyatini to'g'ri anglagan yoshlar ularni rivojlantirish to'g'ri yo'naltirish, oqilona foydalanish yo'llarini izlaydilar. Bu esa shaxsdan o'z harakatlarini to'g'ri anglash faoliyatini boshqarish va nazorat qilish evaziga ma'lum samara bera oladi.

Shuningdek, "Shaxs" mavzusini tushinishini, talabaning o'zini shaxs sifatida anglashi, o'z ijobiy va salbiy sifatlarini tahlil qilish, boshqa shaxslar ichida o'z shaxsini alohida ajratish, solishtirish kabi muhim ijtimoiy psixologik sifatlarni o'zida shakllantiradi. Bu sifatlarning shakllanishi shaxsda o'ziga xos o'z-o'zini nazorat qilish tizimini yuzaga keltiradi. Ayniqsa shaxsning hissiy irodaviy sifatlari,

ularning o'rinishlari, yuzaga kelish mexanizmlari, iroda akti tuzilish haqida bilimlarga ega bo'lishi, shaxsning kechinmalarini to'liq anglab yetishi, ijobiy his-tuyg'ular uchun optimal yo'l tutish dasturini ishlab chiqish va shu dastur asosida harakat qilish imkonini yaratadi.

O'z tabiatiga xos bo'lgan individual –psixologik xususiyatlarni bilish , ularni anglab yetish, boshqa kishilarga o'xshash, farq qiluvchi jihatlarini bilib olish evaziga shaxs boshqalar bilan to'g'ri va samarali munosabatda bo'lishga o'rganadi.

Masalan, xolerik tempramentli kishi o'z tempramentiga xos xususiyatlar haqida ma'lumotga ega bo'lsa, jamiyat kishilar bilan munosabatga kirishishda, ularni ranjitib qo'ymaslik uchun , zero tabiatga xos bo'lmasada o'z harakatlarini kuchli nazorat qilishga majbur bo'ladi va hokazo.

Shuningdek shaxsning xarakter hislslari , ularning shakllanishi va namoyon bo'lishi muhiti ijobiy hamda salbiy xarakter xislatlarining insoniy munosabatlardagi ahamiyatini bilish, tushinish orqali shaxs ustidan kuchli nazorat o'rnatish, kishilar bilan munosabatlarida salbiy xarakter xislatlarini yashirish, ijobiy sifatlarning rolini yanada oshirishga intiladi. Zero shaxs doimo o'zgalar nazarida ijobiy iz qoldirishga harakat qiladi.

Qobiliyat- har bir shaxs ma'lum faoliyat turini bajarishga optimal qobiliyatlidir degan qoidaga asoslanadi. Shu tufayli qobiliyat haqida bilimlarni egallash shaxsning o'zida mavjud qobliyatlar va imkoniyatlarni anglab o'z faoliyatlarida ulardan omilkorona foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Psixologiyaning “Yosh davrlar psixologiyasi” sohasi nuqtai nazaridan tahlil qilganimizda bir yoshli bola o'z tanasining sezgirligini , undan tahqaridagi buyumlarning ta'siri tufayli hosil bo'ladigan sezgilardan farqini anglay boshlaydi. 2-3 yoshida esa bola o'z harakatlari natijasida sodir bo'ladigan yoqimli hislarni kattalar yordami orqali erishilganlaridan farqini ajratadi. Ana shu davrda boshlab ular o'z harakatlari va faoliyatini mustaqil , kattalarning ko'magisiz bajarishga harakat qilib boshlaydi. Bog'cha va maktab yoshida kattalar yordamida o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklarning sabablarini amglab yetadilar. Nihoyat o'spirinlik va yoshlik davriga kelib ijtimoiy hayotga va mehnat faoliyatida faol

ishtirok etish natijasida o'ziga va o'z harakatlariga ijtimoiy-axloqiy jihatdan baho berishning kengaytirilgan sisemasi shakllana boshlaydi, o'z-o'zini to'liq anglab yetish sodir bo'ladi.

“Differensial psixologiya” o'z-o'zini anglash va mazorat qilishni shaxsning individual psixologik xususiyati sifatida tadqiq etadi. Ya'ni u kelib chiqishi va shakllanishiga ko'ra tabiiy hamda ijtimoiy harakterga ega bo'lib, shaxsning o'zi haqidagi nisbatan barqaror ko'proq yoki ozroq darajada anglanilmagan, betakror deb his qilinadigan tasavvurlardan iborat bo'lib, inson boshqalar bilan hamkorlik faoliyati jarayonidan ana shunga asoslanadi. O'z-o'zini anglash va nazorat qilishga nafaqat o'zgalar bilan munosabati, balki o'ziga, o'z harakatiga nisbatan munosabati ham qo'shiladi.

Shaxsdagi o'z-o'zini anglash va nazorat qilishga nafaqat o'zgalar bilan munosabati, balki o'ziga, o'z harakatlariga nisbatan munosabati ham qo'shiladi.

Shaxsdagi o'z-o'zini anglash va nazorat qilish xususiyati ijtimoiy-psixologik munosabatlarning shart-sharoitlari va oqibatlarini tasavvur qilish, tahlil qilish va anglash tufayli shakllanadi. Masalan; biror faoliyat bilan shug'ullanayotgan kishi shu faoliyat talablari uni bajarish shart –sharoitlari va faoliyat natijalari, shuningdek faoliyat natijalarining kutulayotgan munosabatlarini oldindan anglagan holda faoliyatini nazorat qilish.

Shaxsning ijtimoiy munosabatlarda, faoliyatda, xulq-atvorda o'z-o'zini nazorat qilishning asosi albatta shaxsdagi muvaffaqiyatlar, intilish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi hisoblanadi. Bu motivlar o'z navbatida shaxsning biologik va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Shaxsning o'z o'zini nazorat qilish va faoliyatini ta'minlovchi motivlarning asosan 2 turi farqlanadi. Bular muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivlaridir. Kishilar faoliyatlari davomida ulardan qaysi birini mo'ljal olishlariga qarab farqlanadi.

Masalan; faqat muvaffaqiyat motiviga asoslanganlar oldindan ishonch bilan shunday ish boshlaydilar, nima qilib bo'lsa ham muvaffaqiyatga erishishni bosh maqsad qilib qo'yadilar.

Muammoning oily ta'limda tahsil olayotgan talabalar faoliyati mislidagi talqini sifatida psixolog E.G'.G'oziyev ta'lim- tarbiya jarayonidagi tashabbuskorlik talabining o'z xohish irodasiga binoan zarur xatti harakatlarni amalgam oshirish uqividir, mustaqil bilim olish va fikrlashdagi qat'iyatlilik- talaba tomonidan jiddiy yo'nalgan qaror qabul qilish, uni izchil hayotga tadbiq etish hislatidir, tirishqoqlik talabaning qiyinchiliklarni yengish uchun kurashishga kuch-qudratini also pasaytirmasdan, uzluksiz va uzoq muddat maqsadga erishish uchun intilish ko'nikmasidan deb ta'kidlaydilar.

Muallifning fikricha ta'lim jarayonida o'z-o'zini boshqarishning bir necha ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular muammolarni yechish chog'ida chidamlilik- shaxs tomonidan qabul qilingan qarorni amalgam oshirishga halal beruvchi fikrni, hissiyot va xatti- harakatni tizginlovchi (tormazlovchi) talabaning uquvchanligidan iboratdir.

Tashkillanganlik- o'z harakati va xulqini rejalashtirish, xususan uni ijro etishda talabaning rejaga asoslanish malakasidir.

Matonatlilik- qo'yilgan maqsadni muqaddas his etgan holatda o'zini oqlaydigan xavf-xatarga qo'l urish, qo'rqinchga nisbatan yuzma-yuz tura olish fazilatidir.

Shaxsning xulq atvorida, o'quv faoliyatida, agarda ta'limiy mashg'ulotlar oqilona haqqoniy ravishda, to'g'ri uyushtirilsa, unchalik muhim bo'lmagan irodaviy sifatlar ham paydo bo'lishi, intizomlilik, qunt, o'zini qo'lga olishlik shakllanishi mumkin.

Ushbu ruhiy holatni aniqlash uchun professor E.G'.G'oziyev tomonidan testdan foydalanish mumkin. Bunda talab tavsiya qilinayotgan fikrlarga "Ha" yoki "Yo'q" degan javob qaytarishi kerak.

1. Hayotdagi muvaffaqiyat tasodiflarga ko'ra oldindan qilingan hisob-kitoblarga ko'proq bog'liq bo'ladi deb o'ylayman.
2. Agar men o'zimning sevimli mashg'ulotlarimdan ayrilsam, unda men uchun hayotning mazmuni yo'qoladi.

3. Men uchun har qanday ishning oqibati natijasidan ko'ra, uning bajarilishi jarayoni muhim.
4. Men odamlarning o'z yaqinlari bilan bo'lgan munosabatlaridan ko'proq qayg'uraman deb hisoblayman.
5. Mening fikrimcha, ko'pchilik odamlar yaqin kunga mo'ljallangan maqsad bilan emas, balki uzoqqa mo'ljallangan maqsad bilan yashaydilar.
6. Agar imkoniyat bo'lsada, lekin hech kim sezmasligiga ishonchim komil bolsa nojoya harakat qija olmayman.
7. Mening hayotimda muvoffaqiyatsizliklardan ko'ra muvoffaqiyatli kunlar ko'p bo'lgan.
8. Menga amaliy, ishchan, ishbilarmon odamlardan ko'ra his-tuyg'uli, ko'ngilchan odamlar ko'proq yoqadi.
9. Katta va oddiy ishda ham men o'zimning ba'zi o'nsorlarimni takomillashtirishga xarakat qilaman.
10. Muvoffaqiyatga erishish haqidagi fikirlarga berilib ketgan vaqtlarida ehtiyotkorlik choralarini unitib qo'yish mumkin.
11. Yoshligimda ota-onam meni dangasa deb xisoblar edi.
12. Men o'zimning muvoffaqiyatsizliklarimga sharoit emas balki ko'proq o'zimni aayibdor deb hisoblayman.
13. Ota-onam meni qattiq nazorat qilishgan.
14. Menda qobilyatga nisbatan sabr-toqat kuchli.
15. O'z maqsadlaridan qaytishga muvaffaqiyatga erisha olmasligim haqidagi fikr emas, balki dangasalik sabab bo'ladi
16. Men o'zimga ishongan odam deb hisoblayman.
17. Muvaffaqiyatga erishish uchun garchi imkoniyatlar mening foydamga bo'lmasa ham tавvаkаl qilishim mumkin.
18. Men tirishqoq odam emasman .
19. Hamma ishlar tekis ketayotgan bo'lsa unda mening g'ayratim yanada oshadi.

20. Agar men gazetada ishlaganimda edi, unda turli voqealar haqida yozishdan ko'ra, ko'proq odamlar yaratgan yangiliklarni yozgan bo'lar edim.

21. Mening yaqinlarim odatda shaxsiy rejalarim bilan hamfikir bo'lmaydilar.

22. Mening hayotga nisbatan talablarimning darajasi o'rtoqlarimning shunday talablaridan pastroq.

23. Men o'z maqsadimga erishish yo'lida qat'iyman.

Test kaliti "Ha" – 1, 2, 6, 7, 8, 9, 15, 17, 19, 20, 22, 23.

"Yo'q" – 3, 4, 5, 10, 11, 12, 13, 14, 16, 18, 21.

Ballar yoki natijalar tahlil. Ballar yig'indisi 0-9 dan past bo'lganda sizning faoliyatingizda muvaffaqiyatga ehtiyoj yaqqol ko'rinmaydi. 10-13 balgacha. Sizda muvaffaqiyatga intilish mavjud, lekin hayotga faoliyatingizni tashkil qilishda har doim ham muvaffaqiyatga ehtiyoj sezmaydiz. 14-23 balgacha. Sizing faoliyatingizda muvaffaqiyatga ehtiyoj yuqori darajada, har doim muvaffaqiyat bo'lishga ishonasiz, qat'iysiz yoki bu darajada murakkab, lekin bajarilishi mumkin ishlarni qilishni yoqtirasiz. 0-9 past, 10-13 o'rtacha, 14-23 yuqori.

Demak, bu kabi xususiyatlarning mavjudligi, ularni to'g'ri tarbiyalash, maqsadni shakllantirish imkoniyatlari haqidagi bilimlarni psixologiyani o'rganish orqali egallash mumkin.

Yuqoridagi fiklardan ko'rinib turibdiki, psixologik bilimdonlik inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, undan o'z-o'zini anglash, nazorat qilish xususiyatlarining takomillashuviga xizmat qiladi. Psixologlar tomonidan e'tirof etilishicha psixolog bilimlar bilan qurollanish. Shaxsni o'z-o'zini qo'lga olish, o'z-o'ziga buyruq berish, o'z-o'zini qayta tarbiyalash, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z imkoniyatlarini chamalay olish va ulardan unumli foydalanish kabilarga o'rgatadi.

Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda, bizning nazarimizda bolalar maktab daridan boshlab psixologik bilimlarni berib boorish maqsadga muvofiq.

Masalan; odobnoma, ma'naviyat darslarida odob-axloq qadriyatlar haqida bolalarga bilim beriladi, ammo odob-axloqni shakllantirishga xizmat qilishga psixologik mexanizmlar hali bolada yetarlicha shakllanganligi sababli o'qituvchining bergan saboqlari o'quvchi uchun quruq gapga aylanib qoladi yoki

uyda ota-onasi kattalar aytgan fikrlarini o'qituvchi takrorlayotganda tuyuladi. Bu hol ta'lim-tarbiya samaradorligining ortishiga xizmat qila olmaydi. Buning uchun o'quvchining o'z-o'zini takomillashtirishi uchun zamin bo'lgan sifatlari uning alohida xususiyatlari, kechinmalari, his-tuyg'ulari, irodasi, qobiliyati, qiziqishi va o'zining ehtiyojlarini hisobga olish muhimdir.

Psixologiya har bir shaxsning individual xususiyatlarini namoyon qilaolishi bilan ajralib turadi.

Shuningdek psixologiya ilmiy-amaliy soha sifatida o'quvchi va yoshlarning psixologik xususiyatlari, imkoniyatlari, ijtimoiy psixologik fazilatlarini diagnostika qilish ular hulqidagi muhim jihatlarini o'rganish va zarur bo'lgan psixokorreksion tadbirlarni olib borish imkoniyatiga ega. O'quvchilarda ijobiy xulq-atvor va odob-axloqni shakllantirish uchun tashkil etiladigan psixotreninglar kichik, o'rta va yuqori sinf o'quvchilarida ham kutilgan natijalarni berishi shubxasiz. Psixologik trening bu rivojlanayotgan shaxs uchun zarur bo'lgan ijtimoiy psixologik xususiyatlarni zudlik bilan shakllantirishga xizmat qiluvchi maxsus tarizda uyushtiriladigan mashqlar tizmidir.

Misol tariqasida psixotrening mashqlaridan namuna keltiramiz ;

“Fazilatlar do'koni” mashqi:

Mashqning (borishi) maqsadi trening ishtirokchilarda zarur ijtimoiy psixologik fazilatlarini shakllantirishdan iborat.

Mashqning borishi trening guruxi a'zolari uchta kichik guruxchalarga bo'linadi 1-gurux a'zolari mijoz (xaridor)lar 2- gurux a'zolari “Fazilatlar do'koni” egalari 3- gurux a'zolari keraksiz buyumlarni qabul qilish markazining ishchilari sifatida ishtirok etadilar.

“Fazilatlar do'koni” eng oliyjanob va zarur insoniy fazilatlar sotiladi, ya'ni bu yerda sotiladigan mahsulotlarning har biri alohida fazilatga ega. Masalan: “kartoshka-samimiylik”, “sabzi-tetiklik”, “sholg'om-mardlik”, “turp-bosiqlik”, “karam-kamtarlik”, “banan-mehribonlik”, “mandarin-xushmuomalalik”, “chesnok-tashabbuskorlik” va xokoza.

Keraksiz buyumlarni qabul qilish markazi mijozlarda mavjud ammo endi ular uchun keraksiz zararli fazilatlarni qabul qilib oladi va chiqitga chiqarib yuboradi.

Mijozlar dastlab o'zlarida mavjud, ammo o'zlari uchun keraksiz faoliyatlari va munosabatlariga xalaqit qilayotgan salbiy fazilatlarini aniqlab oladilar va ularni keraksiz buyumlarni qabul qilish markaziga olib borib topshiradilar. Shundan so'ng "Fazilatlar do'koni" ga tashrif buyuradilar. Sotuvchi rolidagi kishi mijozlarni do'konda mavjud fazilatlar bilan tanishtiradi. Ular o'zlari uchun zarur fazilatlarini xarid qiladilar. Ayni vaqtda do'konda mavjud bo'lmagan, ammo o'zlari uchun zarur deb hisoblangan fazilatlar uchun "Buyurtma" beradilar. Unumli haridni amalga oshirgan mijozlar o'z ta'surotlari bilan o'rtoqlashadilar.

"O'z o'zingni angla" mashqi:

Mashqning maqsadi: Shaxsning o'z o'zligini anglash va o'zini to'g'ri baholash, shuningdek o'ziga nisbatan sezgirlikni oshirishdan iborat.

Har bir trening guruhi a'zolariga oldindan tayyorlangan, 2 tadan kartochkalar taqdim etiladi. Kartochkalarda "Lider" va "Farosat" so'zlari vertikal ko'rinishda yozilgan bo'lib, ishtirokchilar so'zdagi har bir harfning qarshisiga shu harf bilan boshlanadigan, o'zidagi shaxsiy sifatlarni sifatlarni yozib chiqish so'raladi.

1- kartochka

L – landovur

I – iffatli

D – diyonatli

E – yengiltak

R – rashkchi

2 - kartochka

F – farosatli

A – aqilli

R – rostgo'y

O – ozoda

S – sabrli

A - ahil

T - tirishqoq

Bu kabi mashqlar shaxsning o'z o'zini to'g'ri anglab yetish, o'zida mavjud ijobiy va salbiy fazilatlarni baholay olish kabi zarur ijtimoiy psixoloik xususiyatlarni shakllantiradi.

II-BOB. TALABALARDA ISHONCH TUYG`USINI MUSTAXKAMLASHDA PSIXOLOGIK METODLARNING O`RNI

2.1. Talabalarda shaxslararo munosabat malakalarni shakllantirish

Hozirgi kunda turli guruhlarning ijtimoiy holatidagi o`zgarishlar, Hamisha ilg`or g`oyalar tarqatuvchi deb hisoblagan yoshlarni ham chetlab o`tmadi. Yoshlar o`sish va ulg`ayishni boshidan kechirayotgan alohida ijtimoiy demokratik guruh bo`lib uning holati jamiyatning ijtimoiy siyosiy ahvoli bilan belgilanadi.

Yoshlarga doir davlat siyosatini (Yoshlarni ijtimoiy, ma`daniy, ma`naviy va jismoniy rivojlantirish) samarali amalga oshirish uchun turli sohalarda katta ishlar bo`shlab yuborilgan. Yoshlarga oid masalalar ta`lim tarbiya, ahloq, odob, ma`daniyat, sog`liqni saqlash, ijtimoiy munosabatlar, siyosat, huquq, din, bo`sh vaqtini tashkil qilish, oila, mehnat, sport bilan chambarchas bog`liq. Shuning uchun ilmiy adabiyotlardan yoshlar bilan bog`liq mazkur muammolar jamiyat tizimida (yani jamiyatning asosiy tavsifi tizimli o`rganishlar va siljishlar bilan uyg`un holda) ham o`ziga xos ijtimoiy guruh sifatida differinseal tarzda ham o`rganiladi.

Shuni inobatga olish kerakki hozirgi kunda O`zbekiston yoshlari bilan bog`liq muammolarning asosiy qismi jamiyatda ro`y berayotgan obektiv jarayonlar (ya`ni urbonizatsiya, jamiyatda nafaqaxo`rlar va qariyalar sonining o`sishi tug`ilishning kamayish va hakazo) bilan bog`liq. Yoshlarning jamiyatdagi o`z o`rinlarini aniqlashi va topishi eski qarashlar va qadiriylarning (o`sishi) so`nishi va yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi davrida amalgam oshirilmoqda. Shuning uchun ham, yoshlar orasida pessimistik kayfiyatlar, sarosimaga tushish, argessiv, ekstremistik kayfiyatlarning paydo bo`lishi, kirminal harakatlarga qo`l urishlik holatlari sonining ko`payib borishi ham kuzatilmoqda.

Yoshlar ijtimoiy munosabatlarning subektlaridir, shu tufayli ham ular obektiv ijtimoiy munosabatlarning ishtirokchisiga aylanganlar. Olimlar o`rtasida yoshlarni alohida guruh sifatida ajratib o`rganish polimikasi hamon

davom etmoqda. Ular mazkur guruhni sotsiologiya, psixologiya, fiziologiya, demografiya hamda turli klassifikatsiyalardan kelib chiqqan holda o'rganishga harakat qilmoqda. Ammo, fikrimizcha, yoshlarni o'rganishda ma'naviy va mafkuraviy omil muhim ahamiyatga ega

Ko'p yillar mobaynida xususan, sobiq ittifoq davrida yoshlar alohida ijtimoiy demografik guruh sifatida o'rganilmagan. Yoshlarni mazkur tarzda o'rganish jamiyat sinfiy tizimi hamda ijtimoiy-siyosiy birlikka asoslangan rasmiy mafkuraviy doktrinasiyaga muvofiq kelmagan. Yoshlar haqida ishchi sinfiy, dehqonlar va intelligensiyaning muayyan tarkibiy qismi sifatida gapirish mumkin bo'lsada, ammo yoshlarning ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olib ularga alohida yahlit bir guruh sifatida qarash esa, hukm surgan tizim manfaatlariga mutloq to'g'ri kelmasdi. Bunday qarashda yoshlarni boshqa ijtimoiy guruh va tabaqalarga qarshi qo'yish demakdir, deb hisoblanadi.

Keyingi yillarda turli ijtimoiy muammolar bilan bog'liq umum milliy yondashuvlarning o'rganib boorish bilan, yosh avlodni har tamonlama yahlit bir organik sub'ekti sifatida qarash zarurati tug'ildi. Bugungi kunda olimlar yoshlar bilan bog'liq muammolarni tahlil-tadbiq etishda ularga o'ziga xos psixologik xususiyatlar va tavsiflarga ega bo'lgan jamiyatdagi egallagan ijtimoiy mavqeini mazkur jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyotidan kelib chiqqan holda belgilash va ularga alohida demografik guruh sifatida qarashga harakat qilmoqda.

Fikrimizcha yoshlar bilan bog'liq ko'pgina muammolarni quyidagi asosiy guruhlarga bo'lish mumkin;

1. Yoshlargagina xos bo'lgan ijtimoiy muammolar. Bularga yoshlarni ijtimoiy guruh sifatida barcha jarayonlardagi o'rni va ro'lini baholash uning davriy chegaralarini aniqlash; yoshlarning ijtimoiylashuviga xos xususiyatlarning spetidikasini o'rganish; ularning ijtimoiy, kasbiy yo'nalganligi, jamoat adaptatsiyalashuvini tahlil etish nohukumat ijtimoiy harakat va birlashmalar faoliyatining ijtimoiy jihatlarini o'rganish.

2. Umumsotsiologik ahamiyatga ega bo'lgan muammolar (NIKOH, OILA, TA'LIM JARAYONLARI BILAN BOG'LIQ) yoki faqat yoshlar doirasida namoyon bo'ladigan muammolar (tarbiyaning , xususiyatlari, uning spetsifikatsiya va samaradorligi yoshlarning ijtimoiy va siyosiy faolligini rivojlantirish, davlat hokimiyati tizimidagi o'rni, rolini belgilash va h. k.).

Yoshlarning ijtimoiy balog'atga yetishuvi, hayotdagi shaxsiy o'rnini tanlash insoniyat hayoti va ta'lim, tarbiya, katta avlodning tajribasini qayta qurib chiqish va o'zida jo etish orqali amalga oshiriladi. Mazkur jarayonning asosiy ijtimoiy-psixologik boshqaruvchi va ko'rsatuvchilari bo'lib ijtimoiy me'yorlar , qadriyatlar va tamoyillari hisoblanadi. Aynan shular yoshlar aqliy va amaliy faoliyatini, ularga xos bo'lgan muammolar spetsifikasini, qiziqishlar va kutilgan natijalarini, o'zini boshqarish va iroda qilish xususiyatlarini belgilaydi.

Agar biz yoshlarda inson hayotining ma'lum bir davri sifatida nazar soladigan bo'lsak, aynan mazkur (16-32 yosh) davrda yoshlarda tamoyillarning barqaror tizimi o'zini- o'zi anglash, ijtimoiy mavqesini shakillanishini kuzatish mumkin bo'ladi. Yoshlar ongi katta miqdordagi turli hil axborotlarni qabul qilish va aks ettirish xususiyatiga ega. Mazkur jarayonlar tufayli yoshlarda tanqidiy fikrlash shakillanadi, ular turli xarakter va jarayonlarga mustaqil baho berishga, o'zining shaxsiy nuqtai nazarlarini asoslashga, o'ziga qarorlarga kelishga shakillanib, ongida ildiz otgan va hamon saqlab qolingan ma'lum stereotiplardan ham holi emas. Nazarimizda bunda faol yaratuvchilik faoliyatiga bo'lgan intilish amaliy faoliyat doirasidagi imkoniyatlarning cheklanganligi bilan to'qnashdi. Yoshlar xarakteridagi qarama-qarshi xususiyat va tavsiflarning (konformizm va negativlik, etirof etilgan umumiy meyorlarni yoki butinlay yolg'izlikka intilish) kelib chiqishi ham mazkur jarayon bilan bog'liq. Hozirgi kunda O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda katta ahamiyatga ega bo'lgan islohatlar amalgam oshirilmoqda. Barpo etilayotgan yangi bozor munosabatlariga asoslangan. Demokratik davlat fuqorolik jamiyati insonlarning jamiyat hayotiga, mehnatga bo'lgan

munosabatlarini tubdan o'zgartirishlarini talab etadi. Endilikda, har bir kishi o'zgalarga emas, balki shaxsan o'zining imkoniyatiga, qobiliyati va istedodiga tayanishi, shulardan kelib chiqib yashashi kerak.

Bugungi yoshlarni bundan 20-30 yil avval yashagan yoshlardan ko'p farqli jihatlar ajratib turibdi. Ko'p farqli jihatlar bilan ajralib turadi. Hozirgi kun yoshlarining ulg'yishi ko'pgina ijtimoiy-psiologik omillar bilan bog'liq. Afsuski, aksariyat holatlarda yoshlarning talab-istaklari ularning shaxsiy qobiliyatlari, aqliy salohiyati, bilimlarining darajasiga muvofiq kelmaydi. Shuning uchun ham, ularda ko'pincha oldiga qo'ygan rejalari amalgam oshirilmasligi, hayotda katta yutuqlarga erishmasligi, tanlagan sohadan qoniqmaslik kayfiyatlari hosil bo'ladi. Albatta bunday omillar yoshlarning umumiy ma'naviy-psixologik holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday ta'sirlar ostida qolgan yoshlarda tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik jamiyatdagi barcha jarayonlarning ishtirokchisi va faol kuchga aylanish hissi ham so'nib boraveradi. Yoshlar orasida aynan ana shunday omillar ta'siri ostida qolganlar uchrab turibdi. Ukarga loqaydlik-pessimistik kayfiyatlar, hayotidan norozlik, butun bir tizim va jamiyatni qoralash va ayblash yoki butinlay befarq bo'lish, tomashabin va kuzatuvchiga aylanish holatlari ham xos. Aksariyat holatlarda bunday yoshlar psixologik jihatdan juda zaif, barchaga ishonuvchan va haddan tashqari emotsional bo'ladilar. Aynan shunday yoshlardan turli g'arazli niyatlarda izg'ib yurgan kuchlar foydalanishga urinadilar.

Ma'lumki, o'tish jarayonida boshidan kechayotgan mamlakatlarda mafkura sohasiga bo'shliq paydo bo'lishi tabiiydir. Jamiyatdagi islohatlar qator stereotiplarning sinishi, maqsadlarining ravshan emasligi, qadriyatlarining o'zgarishi qonuniy tarzda turli hil ziddiyatlarning keltirib chiqaradi. Sobiq Ittifoq mamlakatlarining tajribasi buni yaqqol ko'rsatib turadi. Afsuski, yoshlar mazkur jarayonlarni boshidan kechirganlar. Shuning uchun ham bugungi kunda ayrim yoshlarning qadriyatlar tizimida yetarli darajada moddiy ta'minot, oilaviy holat va comfort kabilar birinchi o'rinni egallaydi. Ma'naviy-madaniy boylik va ijtimoiy-siyosiy faollik esa eng oxirgi o'ringa qo'yilmoqda. Bunday yoshlar ko'piroq

rivojlangan g'arb va rivojlanayotgan Sharq mamlakatlariga ixlos qo'yib u yerda yashovchi ekstrimistik kayfiyatlar ham tez-tez kuzatiladi.

Yoshlar ekstrimizmi aosan jamiyatdagi xulq-atvor va qonunlar bilan butunlay hisoblashmaslik va ularga rioya qilmaslikda namoyon bo'ladi. Nazarimda mazkur jarayonlarning bunday tarzda kechishi aynan uzoq davr mobaynida hukm surgan stereoptiplarning sinishi bilan bog'liq va bu o'rinda an'anaviy madaniyat alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bunday yoshlarning ijtimiylashuvi jarayoni ularning ma'naviy baqquvatligi, ruhiy mustahkamligiga ham ko'p jihatdan bog'liq ekanligi kelib chiqadi.

Yoshlar orasida siyosatga aralashmaslik, unga butunlay befarq qarash va qiziqmaslik kayfiyatlari ham mavjud. Shuning uchun ham maktab bitiruvchilarining ko'pchiligida aniq siyosiy nuqtaiy-nazarlar yoki pazitsiyalar butunlay shakllanmagan bo'ladi. Ammo, ulardan farqli o'laroq ayrim yoshlar guruhlari haddan tashqari siyosatga intilishlarini va aralashishga tayyor ekanliklarini bildirmoqdalar. Ana shu tayyorgarlik millatchilik va ekstrimizm xarakterida ekanligi ham e'tiborga loyiq masaladir. Mazkur muammolar yoshlarga alohida psixologik tavsiflar va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan demografik guruh sifatida qarashning zarurligini yana bir bor ko'rsatmoqda.

Yoshlar orasida o'sib borayotgan ekstrimistik kayfiyatlar, jamiyat qonun qoidalari va ahloqiy me'yorlarini inobatga oimaslik va inkor etishda namoyon bo'lib, ularni turli yondashuvlardan kelib chiqqan holda tushuntirish mumkin. Yoshlar ekstrimizmning falsafiy-psixologik tabiatini o'rganish ekstrimistik hulqni klassifikatsiyalashtirish, mazkur fenomenilikda va umumiylikda o'rganishga imkon beradi. Shu bilan birga, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy holati va ekstrimistik kayfiyatlarining o'sishi o'rtasidagi aloqadorliknin aniqlash ham muhim ahamiyatga ega.

Masalaga boshqacha tomondan qaraydigan bo'lsak, shunday xulosaga kelish mumkinki, yoshlar ekstrimizmning o'sishida asrlar davomida shakllanib kelgan ahloqiy, hulqiy me'yorlarning sinishi bilan bog'liq. Mazkur me'yorlar urf-

odatlarga tayanadigan milliy va islom g'oyalari bilan sug'orilgan qadimiy ananaviy madaniyatga asoslanadi.

Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim-tarbiya bilan bir qatorda tez yo'nalishlarda o'z ifodasini topmoqda; rok madaniyat, porlografik va zo'rovonlik, neofashistlar guruglar va h k. Turli kanallar orqali yoshlar psixologik holatiga katta ta'sir etadigan bunday nomoddiy xodisalar , ulardagi tabbiy o'zini-o'zi himoya qilish reaksiyasini so'ndiradi va yoshlar ma'naviy olamini salbiy qarashlar , ular asosida shakllanadigan kayfiyatlar to'ldirib boradi. Bunday almashinuvning asosiy sababi yoshlar dunyoqarashining to'la shakllanganligi , ma'naviy jihatdan chegaralanganligidadir. Katta avlod uchun ma'naviyat , madaniyatning ajralmas qismi deb hisoblanadi.

Demak yoshlar haqihatdan ham jamiyat tarkibidagi alohida ijtimoiy-demografik guruhdir. Yoshlar jamiyatning boshqa a'zolaridan farqli o'laroq o'ziga xos xususiyatlar va tavsiflarga xos.

Mazkur xususiyatlar ularning ijtimoiy hayotga kirib borishi, hayot yo'llarini topishi, o'zining shaxsiy ijtimoiy mavqeiga erishishi, psixologik holatlardan iborat.

Fikrimizcha yoshklarning ijtimoiylashuvi va ulg'ayishi, jamiyatda o'zining munosib o'rinlarini topishi, turli mafkuraviy tajavvuslarga bardosh berishlari va nihoyat, jamiyat ijtimoiy amaliyotiga tezroq faol kuch sifatida kirib olishi uchun ularning manaviyatini yuksaltirish, bilim va imkoniyatlarini namoish etish uchun munosib bo'lgan shart sharoitlarni yaratish kerak.

2.2. Shaxslararo ishonch - insonni ijtimoiy bilishning sub'yekti sifatida

Qiziqish shaxsning muhim psixologik jabhalaridan biri hisoblanadi, unda insonning individual xususiyati bevosita mujassamlashadi.

Qiziqish insonlarning dunyiqarashi, e'tiqodi, individual, ya'ni uning oily maqsadlari, ezgu niyatlari, orzu umidlari bilan bevosita bog'liq ravishda aks etadi. Qiziqish insonlar hayoti va faoliyatida muhim rol o'ynaydi, hamda ularning muvoffaqiyatini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Qiziqish bilimlarni ongli, puxta, barqaror anglangan holda o'zlashtirishda, ko'nokma va malakalarni shakllantirishda shaxs qobiliyati, zehni, uquvchanligi rivojlanishiga, olamni mukammalroq tushunishga, bilim saviyasining kengayishiga yordam beradi.

Qiziqish motiv singari borliqning mo'jizakor tomonlarini bilishga, fan asoslarini egallashga, faoliyatning turli-tomon shakllariga nisbatan ijodiy yondashishini vujudga keltiradi. Mehnatga, ta'limga nisbatan mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishni shakllantiradi, har qaysi shaxsda ishchanlik, shijoat, egilmas irodani tarkib toptirishga puxta psixologik shart-sharoitlar yaratadi.

Qiziqishning psixologik mohiyatidan kelib chiqqan holda yondashilganda, qiziqish foyda va manfaatni bildirib, insonda intilish, faollik, ichkiturki, ehtiyojni ro'yobga chiqarish manbai rolini bajaradi. Qiziqish muammosini N.A.Ribnikov, N.F.Dobrinin, N.D. Levitov, M.F. Belyayev, I.A.Gordon, L.I.Bojovich, N.G.Morozova, M.G.Davletshin, M.Vohidov, V.A.Tokaryeva, E.G'.G'oziyev va boshqalarning nazariy metodologik xususiyatga ega bo'lgan asarlarida rivojlantiriladi.

Psixologiya faninig yirik nomoyondalari ta'limoticha, qiziqish odamlarning ehtiyojlari negizida yuzaga keladi. Qiziqishning psixologik mohiyatining dastlabki ko'rinishi bu uni odamlar tomonidan anglab yetish yoki tushunish imkoniyatidir. Shaxs tushunish mahsulini uning oqibatini anglash, tasavvur etish orqali ob'yektiv borliqdagi narsa va hodisalarga ongli munosabatda bo'ladi.

Qiziqishning psixologik mohiyatining ikkinchi ko'rinishi uning his-tuyg'ulari, emotsional holatlar bilan uyg'unlashgan tarzda ifodalanishidir. Inson o'z shaxsiy qiziqishini qondirgandan so'ng unda yoqimli his-tuyg'ulari uyg'onadi, ruhiy qoniqish esa o'z navbatida lazzatlanish (praksik) hissini vujudga keltiradi. Aksincha narsaga, faoliyatga qiziqish muvoffaqiyatsizlik bilan yakunlansa, u holda bu noxush kechinmalarni yuzaga keltiradi, buning natijasida uni frustatsiya (ruhi tushish) egallaydi.

Qiziqishning psixologik mohiyatining uchinchi ko'rinishi -uning irodaviy sifatlari bilan yoki iroda akti bilan umumlashgan tarzda vujudga kelishidir. Irodaviy zo'r berish, muayyan qaror bo'yicha intilish, ba'zi qiyinchiliklarni yengish, mustaqillik namoyon qilish qiziqishni qaror toptiradi, shaxsni maqsad sari yetaklaydi.

Qiziqishning psixologik mohiyatining to'rtinchi ko'rinishi- uni oily asab faoliyati, xususiyatlari va temperament tiplari bilan birga mujassamlashgan holda namoyon bo'lishidir.

Hozirgi davrda qiziqish shaxsning individual psixologik xususiyatidan ibortdir, degan xulosa odatiy narsaga aylanib qoldi. Shunga qaramasdan ba'zi manbalarda qiziqish-muayyan soha bo'yicha to'g'ri mo'ljal olishga, yangi omillar bilan tanishishga, voqeylikni to'la va chuqur aks ettirishga yordam beradigan motivdir, degan ta'rifga ham egadir. Psixologiyada qiziqish mana bunday turlarga ajralishi mumkin: 1) mazmuniga ko'ra, 2) maqsadiga binoan, bevosita va bilvosita, 3) ko'lamiga qaraganda, keng va tor, 4) qiziqishlar darajasi bo'yicha, barqaror va beqaror.

Qiziqishlarning mazmun jihatidan o'zaro tafovuylanishi quydagilarda mujassamlashadi: bilish ehtiyojlarining ob'yektlari qaysilar, bilishning mazkur faoliyat maqsadi bilan mutanosibli, shaxsning yashayotgan muhitga nisbatan munosabati kabilar. Insonning shaxsiy qiziqishi kelib chiqishga ko'ra birlamchi bo'lishiga qaramasdan, u bir davrning o'zida ijtimoiylik xususiyatini kasb etaveradi. Uning kasbiy faoliyatiga nisbatan qiziqish oxir oqibatda jamiyat uchun naf keltirishi, ravnaqi uchun qimmatlidir. Ijtimoiy

xususiyatli qiziqishlarning paydo bo'lishi shaxsiy ahamiyat kasb etishi sari etaklashi muqarrar. Chunki umumiylik bilan xususiylik uyg'inlashgan holda hukim suradi va ular doimo o'rin almashib turadi. Shaxso'z qiziqishi tufayli biron-bir narsani kashf etsa, individual ehtiyojini qondiiradi. Shu bois jamiyatning, jamoaning vazifasi- yoshlarni mustaqil faol bilishga, ijtimoiy ahamiyatga molik mehnat faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'otishdan iboratdir. Toki ularda jiddiy, sermazmun, jamiyat tomonidan rag'batlantiruvchi, mehirmuhabbatga sazovor qiziqishlar shakillansin.

Qiziqishning maqsad jihatidan farqi bevosita va bilvosita namoyon bo'ladigan qiziqishlarning mavjudligini aniqlaydi. Bevosita qiziqishlar voqeelikning jismlar va hodisalarning emotsiyonal jozibadorligini his-tuyg'ularga ega bo'lishligi, tashqi ta'sirlarga beriluvchanligi tufayli vujudga keladi. Bevosita qiziqishlar o'rganilayotgan narsaning ma'nosi bilan uning shaxs faoliyati uchun ahamiyati mos tushgan taqdirda paydo bo'lishi mumkin. Shuning uchun psixologiyada bevosita qiziqishlarning yuzaga kelishini faoliyatining maqsadini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan bilish ehtiyoji deb atash qabul qilingan. Shunday qilib, u yoki bu narsalarni bilish, ko'rish, idrok etish, aniqlab yetish uchun qiziqarli tuyilgan ichki kechinmalar bevosita qiziqish yuzaga keladi. Binobarin, shaxs mazkur jarayonda bu narsalar meni qiziqtirgani uchun maxsus treninglarga, omilkor yo'l-yo'riqlarga o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Odamlarning qiziqishlari bir-biridan o'zining ko'lamini bilan farq qiladi. Shunday shaxslar toifasi ham mavjudki, ularning qiziqishlari faqat birgina soxaga qaratilgan bo'ladi. Boshqa bir toifaga taaluqli odamlarda esa qiziqishlar qator soxalarga, fanlarga, ob'ktlarga yo'naltirilganligini uchratish mumkin. Lekin tirli soxaga nisbatan qiziqishning biri ikkinchisiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin emas. Qiziqishlarning torligi ko'pincha salbiy xodisa sifatida boxolanishi mumkin, lekin ayni chog'da ularning kengligini ham nuqson tariqasida tahlil qilsa bo'ladi. Biroq shaxsning barkamol shaxs bo'lib kamol toptirishda qiziqishlar ko'lamini tor emas, balki keng miqyosda bo'lishni taqazo etadi. Qiziqishlar o'zlarining darajasiga

qarab barqaror va beqaror turlariga ajratiladi. Barqaror qiziqishiga ega bo'lgan shaxs uzoq vaqt davomida yoqtirgan predmedlarga, ob'yektlariga, xodisalarga nisbatan o'z moilini hech o'zgarishsiz ushlab turadi oladi. Shu boisdan inson ehtiyojlarini o'zida mujassamlashtiruvchi shaxsning ruhiy fazilatiga aylana boshlagan qiziqishlar barqaror qiziqishlar deyiladi. Psixologiya fanining so'ngi davridagi ma'lumotlarga asoslangan holda qiziqishlarni bir necha darajalarga ajratish mumkin. A) sinkovlik B) qiziquvchanlik, V) bilishga qiziqish, G) turg'un yoki kasbiy qiziqish. Sinkovlik qiziqishning biron narsaga nisbatan kuchli intishdan iborat qisqa muddatli turli yoki darajasidir. Bilishga qiziqish anqlashinilgan darajadagi, maqsadga erishish yo'lida faoliyat ko'rsatuvch qiziqish turadi.

Qiziqishning bu turi va uni yuqori bosqichi shaxsning voqeylikdagi ichki bog'lanishlarini, munosabatlarini bilib olishga yo'llaydi hamda ruhiy to'siqlar va qiyinchiliklarni yengadigan muvoffaqiyatsizlikdan chochimaydigan, qat'yatli, intiluvchang, to'liqmas individual xususiyatni shakillantirishga yordam beradi. Odamlarda o'zini-o'zi boshqarish, shaxsiy qiziqishni idora qilish, o'ziga-o'zi buyruq berish, o'zini qo'lga olish, o'zini-o'zi takomillashtirish singari shaxsiy xususiyatlarini shakillantirish, ijtimoiy, tarixiy hamda ijtimoiy-psixologik axamiyat kasb etadi. Xulosa qilib, shuni takidlash mumkinki, qiziqishlar ta'lablarini kasbiga yo'naltirishga muhim rol o'naydi.

Odamlar bir - birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko`zlagan maqsadlaridan biri - o`zaro bir - birlariga ta'sir ko`rsatish, ya'ni fikr - g`oyalariga ko`ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarni o`zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. Psixologik ta'sir - bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va hatti - harakatlariga ta'sir ko`rsata olishdir.

Ijtimoiy psixologiyada psixologik ta'sirning asosan uch vositasi farqlanadi.

- 1.Verbal ta'sir
- 2.Noverbal ta'sir
- 3.Paralingvistik ta'sir

Verbal ta'sir - bu soʻz va nutqimiz orqali koʻrsatadigan ta'sirimizdir. Bunday asosiy vositalar soʻzlardir. Ma'lumki, nutq - bu soʻzlashuv, oʻzaro muomala jarayoni boʻlib, uning vositasi - soʻzlar hisoblanadi. Monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham odam oʻzidagi barcha soʻzlar zahirasidan foydalanib, eng ta'sirchan soʻzlarni topib, sherigiga ta'sir koʻrsatishni xohlaydi.

Noverbal ta'sirning ma'nosi «nutqsiz»dir. Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir - birlariga nisbatan tutgan oʻrinlari, xolatlari (yaqin, oʻzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir - birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi.

Paralingvistik ta'sir - bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyatsiya, tovushlar, toʻxtashlar, duduqlanish, yoʻtal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir - birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Masalan, agar uchrashuvning dastlabki daqiqalarida oʻrtogʻingiz sizga qaramay, atrofga alanglab, «Koʻrganimdan biram xursandman», desa, ishonasizmi?

Muloqot jarayonidagi xarakterli narsa shundaki, suhbatdoshlar bir - birlariga ta'sir koʻrsatmoqchi boʻlishganda, dastavval nima deyish, qanday soʻzlar vositasida ta'sir etishni oʻylar ekan. Aslida esa, oʻsha soʻzlar va ular atrofidagi harakatlar muhim rol oʻynarkan. Masalan, mashhur amerikalik olim Megrabyan formulasiga koʻra, birinchi marta koʻrishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy boʻlishiga gapirgan gaplari 7%, paralingvistik omillar 38%, va noverbal harakatlar 58% gacha ta'sir qilarkan. Keyinchalik bu munosabat oʻzgarishi mumkin albatta, lekin xalq ichida yurgan bir maqol toʻgʻri : «Ust - boshga qarab kutib olishadi, aqlga qarab kuzatishadi».

Muloqotning qanday kechishi va kimning koʻproq ta'sirga ega boʻlishi sheriklarning rollariga ham bogʻliq. Ta'sirning tashabbuskori - bu shunday sherikki, unda ataylab ta'sir koʻrsatish maqsadi boʻladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqorida ta'kidlangan vositalardan foydaladi. Agar boshliq

ishi tushib, biror xodimni xonasiga taklif etsa, u o`rnidan turib kutib oladi, iltifot ko`rsatadi, xol - ahvolni ham quyuqroq so`raydi va so`ngra gapning asosiy qismiga o`tadi.

Ta'sirning adresati - ta'sir yo`naltirilgan shaxs. Lekin tashabbuskorning suhbatga tayyorgarligi yaxshi bo`lmasa, yoki adresat tajribaliroq sherik bo`lsa, u tashabbusni o`z qo`liga olishi va ta'sir kuchini qayta egasiga qaytarishi mumkin bo`ladi.

Shu o`rinda odamlarni samarali muloqotga o`rgatish muammosi haqida keltirmoqchimiz. Chunki bugungi kunda bu muammo ijtimoiy psixologiyaning muhim masalalaridandir.

Ma'lumki, gaplashayotgan odamlar biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi, eshitadi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o`zaro mosligi, bir - birini to`ldirishiga bog`liq ekan. Noto`g`ri tasavvurlardan biri shuki, odamni muomala yoki muloqotga o`rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so`zlardan foydalanib, ta'sirchan gapirishga o`rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni - tinglash qobiliyatiga deyarli e'tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi «Yaxshi suhbatdosh - yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir» deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo`lishini nazarda tutgan edi.

Mutaxassislarning aniqlashlaricha, ishlayotgan odamlar vaqtining 45%i tinglash jarayoniga ketar ekan, odamlar bilan doimiy muloqotda bo`ladiganlar 35 - 40 % oylik maoshlarini odamlarni «tinglaganlari» uchun olarkanlar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, kommunikatsiyaning eng qiyin sohalaridan hisoblangan tinglash qobiliyati odamga ko`proq foyda keltirarkan.

Shuning uchun bo`lsa kerak, nemis faylasufi A. Shopengauer «Odamlarni o`zingiz to`g`ringizda yaxshi fikrga ega bo`lishlarini xohlasangiz, ularni tinglang» deb yozgan ekan. Darhaqiqat, agar siz kuyunib gapirsangizu, suhbatdoshingiz sizni tinglamasa, boshqa narsa bilan ovora bo`laversa, undan ranjiysiz, nafaqat ranjiysiz, balki u bilan aloqani ham uzasiz. O`qituvchi gapirayotgan paytda uni tinglamaslik odobsizlikning eng keng tarqalgan ko`rinishi deb baholanishini bilasizmi?

Nima uchun biz ko`pincha yaxshi gapiruvchi, so`zlovchi bo`la olamiz-u, yaxshi tinglovchi bo`la olmaymiz? Psixologlarning fikricha, asosiy xalaqit beruvchi narsa - bu bizning o`z fikr - o`ylarimiz va xohishlarimiz og`ushida bo`lib qolishimizdir. Shuning uchun ham ba`zan rasman sherigimizni tinglayotganday bo`lamiz, lekin aslida xayolimiz boshqa erda bo`ladi. Tinglashning ham xuddi gapirishga o`xshash texnikasi, usullari mavjud. Ularning turi ham ko`p , lekin asosan biz kundalik hayotda uning ikki usulini qo`llaymiz : so`zma - so`z qaytarish va boshqacha talqin etish. Birinchisi, suhbatdosh so`zlarining bir qismini yoki yaxliticha qaytarish orqali, sherikni qo`llab - quvvatlashni bildiradi. Ikkinchi usul esa - sherigimiz so`zlarini tinglab, undagi asosiy g`oyani muxtasar, o`zimizning talqinimizda ifoda etish. Ikkala usul ham sherik uchun muhim, chunki u sizning tinglayotganingizni, xattoki, undagi g`oyalarga qarshi emasligingizni bildiradi. Bunday tashqari, biz yaxshi tinglayotgan bo`lib, «Yo`q-e?», «Nahotki?», «Qaraya?», «Yasha!» luqmalari bilan ham suhbatdoshimizni gapirishga, yanayam o`z fikrlarini oydinlashtirishga chaqirib turamiz.

Demak, aslida bizdagi gapirayotgan shaxs etakchi, u suhbatning mutloq xokimi, degan tasavvur unchalik to`g`ri emas. Yaxshi tinglashda ham shunday kuch borki, u suhbatdoshni Sizga juda yaqinlashtiradi, ishonchni tug`diradi. Chunki muloqot jarayonidagi eng qimmatli narsa - bu axborotning o`zi. Tinglayotgan odam ma'nili, yaxshi dialogdan faqat yaxshi, foydali ma'lumot oladi. Gapirgan esa aksincha, o`zidagi borini berib, gapirmaydigan suhbatdoshdan «teskari aloqani» olib ulgurmay, hech narsasiz qolishi ham mumkin. Shuning uchun muloqotga o`rgatishning muhim yo`nalishlaridan biri - odamlarni faol tinglashga, bunda barcha paralingvistik va noverbal omillardan o`rinli foydalanishga o`rgatishdir. Bu borada professional tinglash texnikasiga quyidagilar kiradi:

aktiv xolat. Bu - agar kreslo yoki divan kabi mebel bo`lsa, unga bemalol yastanib yoki yotib olmaslik, suhbatdoshning yuzidan tashqari joylariga qaramaslik, mimika, bosh chayqash kabi harakatlari bilan uning har bir so`ziga qiziqayotganligingizni bildirishni nazarda tutadi;

suhbatdoshga samimiy qiziqish bildirish. Bu nafaqat suhbatdoshni o`ziga jalb qilib, balki keyin navbat kelganda o`zining har bir so`ziga uni ham ko`ndirishning samarali yo`lidir.

o`ychan jimlik. Bu suhbatdosh gapirayotgan paytda yuzda mas'uliyat bilan tinglayotganday tasavvur qoldirish orqali o`zingizning suhbatdan manfaatdorligingizni bildirish yo`li.

Agar biz suhbatdoshimizni yaxshi, diqqat bilan tinglasak, bu bilan biz unda o`z - o`ziga hurmatni ham tarbiyalaymiz. Demak, tinglash jarayoni ko`pchilik tasavvur qilgani kabi unchalik passiv jarayon emas ekan. Uning muloqotning samarali bo`lishidagi ahamiyati nihoyatda katta. Chunki tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar, g`oyalarning shakllanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun ma'ruzachi professorning har bir chiqishi va ma'ruzasi agar talabalar tomonidan diqqat bilan tinglansa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham teng yutadi.

Agar muloqot jarayonida ishtirok etuvchi ikki jarayon - gapirish va tinglashning faol o`zaro ta'sir uchun teng ahamiyatini nazarda tutsak, bu jarayon qatnashchilarining psixologik savodxonligi va muloqot texnikasini egallashining ahamiyatini anglash qiyin bo`lmaydi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada odamlarni samarali muloqotga ataylab o`rgatishga juda katta e'tibor beriladi. Bu boradagi fanning o`z uslubi bo`lib, uning nomi ijtimoiy psixologik trening (IPT) deb ataladi. IPT - muloqot jarayoniga odamlarni psixologik jihatdan hozirlash, ularda zarur kommunikativ malakalarni maxsus dasturlar doirasida qisqa fursatda shakllantirishdir. Eng muhimi IPT mobaynida odamlarning muloqot borasidagi bilimdonligi ortadi.

2.3. Talabalarda ishonch tuyg'usini shakillantirish motivatsiyasi

Mustaqillik tufayli mamlakatimizda amalgam oshirilayotgan yangilanish va rivojlanish siyosatining strategic maqsadi bozor iqtisodiga asoslangan adolatli insonparvar jamiyat barpo etishdan iboratdir. Bu jamiyat insonga siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy turmush tarzini erkin tanlash huquqini kafolatlaydi.

Manaviyat sohasida moddiy qadriyatlarni tiklash va yanada rivojlantirish, jamiyat ma'naviy hayotida ijodiy salohiyat uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ma'naviy sog'lom avlodni tarbiyalash, kadrlar tayyorlash milliy dasturini og'shmay amalgam oshirish, millatlararo totuvlik va barqarorlikni saqlash, yuksak insoniy fazilatlarni shakillantirishda sharqona an'analardan ijodiy foydalanish keng ijtimoiy ma'no kasb etadi.

Bu esa voyaga yetmagan yoshlarimizning kelajagimizni yaqqol tasavvur etishi, jamiyatimizning ijtimoiy-ma'naviy poydevorini mustahkamlashi, yod mafkuralar tajovuziga qarshi kurasha oladigan, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularda g'oyaviy bo'shliq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, va nihoyat yurtning yuksak taraqqiyotini ta'minlash ehtiyojini yuzaga keltiradi.

O'zbekistonda barpo etilayotgan, huquqiy davlat va demokratik, erkin fuqarolik jamiyatning o'zi keng ma'noda ijtimoiy-ma'naviy xodisadir. U ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat kabi o'lmas qadriyatlarga suyangan holda yurt tinchligi, vatan ravnaqi, xalq erkinligi va faravonligi, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlarora totuvlik, diniy bog'rikenglik rivojlanishining asosi va shartiga aylantiradi.

Voyaga yetmagan yoshlarning hayotiy maqsadini o'rganish ular ma'naviyatini qaysi yo'llar va yo'nalishlarda shakillantirish zarurligini aniqlash imkonini beradi.

Ta'lim tizmidagi islohatlar o'zining asosiy vazifasini hal etib, chuqirlashib brogan sayin yoshlarni tarbiyalash muassasalari bilan aloqalarni qat'iy yo'lga qo'yish muammolari muhim bo'lib bormoqda. Ta'lim tarbiya

yuki faqat bir tomonda ya'ni ta'lim tizimi zimmasida emas, balki otanoning ham bola tarbiyasiga qo'shadigan hissasini va o'z farzandlarining kim bo'lishi va rivojlanishi uchun ma'suliyatini oshirish lozim.

Ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan har xil tadbirlar huquqiy tarbiyaning mohiyati, maqsad va mazmunidan kelib chiqadi:

-birinchidan, faqat targ'ibot-tashviqot tadbirlari bilan cheklanib qolmay, hayotning o'zi talab qilayotgan yangi-yangi mafkuraviy texnologiyalarni amalgam oshirishga xam o'tishimiz kerak. Bu voyaga yetmagan yoshlarimiz mafkuraviy ongini hozirgi darajadan biz orzu qilgandek yuksaltirishni anglatadi. Shu sababli bu ishda qo'llaniladigan usul-uslublar, vosita va shakillar nonmigina yoki hisobot uchun emas, balki keltiradigan aniq natijasi, samarasiga qarab tanlanadi.

-ikkinchidan, voyaga yetmagan yoshlarni har xil diniy oqimlarga qo'shilish xavfni oldini olish, ularning diniy bilimlarini oshirish maqsadida diniy idora xodimlari bilan davra suhbatlari uyushtirish.

-uchinchidan, voyaga yetmagan yoshlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurash maqsadida ichki ishlar xodimlari bilan uchrashuvlar tashkil etish.

-to'rtinchidan, voyaga yetmagan yoshlarni giyoxvandlikka qarshi kurash maqsadida misol uchun "Giyoxvandalik asr vabosi", "Spid-bu o'lim" kabi mavzularda mutaxassislar bilan uchrashuvlar tashkil etish. Shu kabi tadbirlarni o'tkazish voyaga yetmagan yoshlarmizning ruhiyatiga ijobiy ta'sir etadi.

Bundan tashqari buyuk ajdodlarimizning bizga qoldirgan ma'naviy meroslarini voris sifatida o'rganish o'quvchi yoshlarimizning ma'naviy ongini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etishini unutmashimiz lozim.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" nomli kitobida ana shu meroslarga alohida to'xtalib o'tganini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarihiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilishini, bundan tashqari ajdodlarimizning ma'naviy tafakkurini ulug'lab, ular tomonidan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi

namunalaridan tortib bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan sohalarning har bir turiga oid ming-minglab qo'lyozmalar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdan deb ta'kidlanadi.

Ana shunday tarixiy yodgorliklardan biri xalq og'zaki ijodining noyab durdonasi bo'lmish "Alpomish" dostoni millatimiz o'zligini namoyon etadigan, qolaversa o'quvchi-yoshlarimizda vatanga bo'lgan muhabbatni orttiradigan, ularda mardlik, insonparvarlik fazilatlarini shakllantiradigan qahramonlik qo'shig'I hisoblanadi.

"Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" kitobida dostonidan o'quvchi-yoslarga ibrat bo'ladigan quydagi misol keltirilgan.

Ota bobolarimizning qadimiy tasavvuriga ko'ra, o'q- yoy hokimiyat nishoni hisoblangan. Alpomish yeti yoshida o'n to'rt botmon birichdan yasalgan. Alpdegani hokimiyat egasi ekani va bizning ko'p asrlik milliy davlatchiligimizning badiiy ifodasi ekaniga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

Voyaga yetmagan yoshlarimizni shu kabi ma'naviy meroslarimiz bilan ongini shakllantirishimiz o'ylaymanki ularda insoniylik fazilatlarini shakllantirishga juda katta imkoniyat yaratadi.

Hozirgi zamon psixologiyasida shaxsni tadqiq qilish masalasi dolzarbligi bilan boshqa psixologik kategoriyalar ichida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki erkin bozar iqtisodiyotiga o'tishning o'zi shaxsda shakllanib ulgurmagan sifat, hislat, xususiyat, fazilat singari sub'ektiv imkoniyatga ega bo'lgan milliy, umumbashariy, insoniy qiyofa oldiga yangi talablarni qo'yadi. Buning oqibatida hayot va faoliyat odamdan hali ro'yobga chiqmagan ichki imkoniyatlari, zahiralari namoyon bo'lishini taqoza qiladi.

Shaxsiy va ijtimoiy turmushda yuz berayotgan o'zgarishlar, islohatlar insonni zamon talablariga moslashishning ehtiyoj va zaruriyat darajasiga ko'taradi. Buning natijasida shaxsda yangi fazilatlar, qobiliyatlar ro'yobga chiqa boshlaydi, xatto erkak va ayolga xos o'ziga xoslik, kasbiy yo'nalganlik o'rtasidagi tafavvutlar ham ayniyatga aylanadi. Ayniqsa ayollarda menijmet marketing, brokker, biznes faoliyatlarga moyillik, uquvchanlik, zehin, jasoratlilik, tavakkalchilik,

ma'suliyat hissi kabi xarakterologik xususiyatlarning ularda tarkib topa boshlaganini ijobiy, ijtimoiy voqeilik yoki xodisa sifatida boholanishga loyiq. Ushbu shakillanayotgan, yangidan yuzaga kelayotgan shaxsning xislatlari, ichki imkoniyatlari jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi, shaxslararo, millatlararo munosabatlar darajasini yuksaklikka ko'tarishga xizmat qiladi. Ma'lumki insondagi ichki imkoniyatlarning uzluksiz ravishda, izchillik bilan namoyon bo'lishi taraqqiyotning kafolati tariqasida gavdalanadi. Shaxsda doim yuksaklikka intilish yoki komfort hissining hokum surishi taraqqiyotini amalgam oshirishning ham harakatlantiruvchisi, xam mixanizmi vazifalarini bajaradi.

Psixologiya fanida yuz berayotgan o'zgarishlar shaxsga oid ta'riflarning ham o'zgacha takomillashgan tarizda ifodalanishini taqazo etmoqda.

Jurnalxon hukmiga havola qilinayotga test 20 ta savoldan yoki vaziyatdan tuzilgan bo'lib, shaxsning xayrixoxlik motivatsiyasini aniqlashga imkon beradi. Tajriba ishtirokchilariga mana bunday tarzda yo'llanma berish nazarda tutiladi: -Siz quyida keltiriladigan har bir hukim yoki vaziyatni diqqat bilan o'qib chiqing. O'qigan savolingiz sizning hatti harakatingizga aynan munosib bo'lsa, u holda qalb amringiz bilan "Xa" yoki mazkur holat sizga mos tushmasa, unda "Yo'q" deb javob qaytaring.

Siz xayrixohmisiz?

1. Kutubxonadan olingan kitoblarni topshirishdan bir oz oldin ularning har biriga sinchikovlik bilan razim solaman, uqib olishga harakat qilaman.
2. Kimdir tasodifan mushkul axvolga tishib qolsa, menda shu insonga yordam berish to'g'risida hech qanday ikkilanishlar yuzaga kelmaydi.
3. Men hamisha did bilan kiyinishga e'tibor qilaman.
4. Men uyda xontaxta atrofida ham o'zimni oshxonada o'tirgandek xis qilaman.
5. Men hech qachon birovga nosamimy, nazar-pisand qilmay, yoqtirmay qaramayman.

6. Biror mashg'ulot bilan shug'illanishdan vos kechgan hollarim bo'lgan, biroq o'sha lahzalarda o'z kuch-quvvatimga, aqliy imkoniyatimga nisbatan ishonchim qariyb yo'q edi.
7. Bazan davramizda yo'q ishtirok etmagan odamlar to'g'risida g'iybat qilishni yoqtiraman.
8. Kim bo'lishdan, xatto qanday lavozim egallashidan qat'iy nazar suhbatdoshimning fikrini diqqat bilan tinglayman/
9. Hayotimda shunday bir antiqa hodisa ro'y bergan, men o'shanda o'zimni oqlash uchun yo'q joydagi sababni to'qiganman.
10. Turmush tajribamda odamlarning noshudligidan foydalanish xolati uchraydi.
11. Men hech ikkilanmay, doimo o'z nuqsonlarimni ro'y-rost tan olaman.
12. Bazn insonni qilgan aybini kechirish o'rniga unga azob berib, tavbasiga tayantirgim keladi.
13. Shunday hodisalar bo'lib o'tishga yo'l qo'yganmanki, o'shanda men o'z fikrimni boshqalar so'zsiz bajarishlari uchun taziyoq o'tkazganman/
14. Mendan odamlar xomiylik qilishdan yoki yordam ko'rsatishdan vos kechishni talab etsalar, odatda bu vaziyatda menda ichki norazilik yuzaga kelmaydi.
15. Mening xohishimga qarshi fikr bildirsalar, hech qachon menda ranjish o'kinch tuyg'ulari yuzaga kelmaydi.
16. Uzoq sayohatga o'tlanishdan oldin menda doimo o'zim bilan nimalarni olib ketish haqida puxta o'ylayman.
17. Men boshqalarning yutuqlariga xasad qilgan onlarim juda ko'p bo'lgan.
18. Menga iltimos bilan murojat qilgan odamlar bazan meni ranjitishadi.
19. Odamlarda ko'ngilsizliklar sodir bo'lganda ular qilmishiga yarasha jazo oldilar degan o'yga boraman.
20. Ko'ngilsiz, yoqimsiz hodisa, holat va xabar yuzasidan hech qachon kulimsirab gapirgan emasman.

Qat'iy fikrimizga ko'ra mazkur test bo'yicha to'plangan miqdoriy natijalarni hisoblashning kaliti quyidagi ko'rinishga ega.

Qo'yilgan savollarga "Ha" deb javob qaytarish: 1,2,3,4,5,8,11,14,15,16,20.

Sinaluvchilar xukmiga havola qilingan savollarga "Yo'q" deb javob qilish: 6,7,9,10,12,13,17,18,19.

Xayrixohlik shaxs sifatida va hati-harakat motivatsiyasining yakuniy ko'rsatkichi qo'llanilish imkoni bo'lgan barcha javoblar yig'indisida yoki majmuasida o'z ifodasini topadi. Bunda yakuniy ko'rsatkich 0 dan 20gacha bo'lgan diapazonda joylashishi mumkin. Ushbu ko'rsatkich qancha yuqori bo'lsa, xayrixohlik motivatsiyasi ham shunchalik yuksak darajada egallaydi. Xuddi shu bois, yakka shaxsning boshqa odamlar tomonidan unga xayrixohlik bildirish mezoni muomalaga nisbatan ehtiyoj bilan aloqador bo'lganligi tufayli yuqoriroq ko'rsatkichga erishishi mumkin.

UMUMIY XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalarda o'zlarida o'qituvchi rahbarligida mustaqil ishlash va o'zlashtirilgan ma'lumotlarni tahlil qilish, kengaytirish- chuqurlashtirish, mustahkamlash va amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakillantirishga erishishlari lozim.

Mazkur o'rinda asosiy jihat talabalar tomonidan mustaqil ta'lim olishga qaratilgan amaliy faoliyat xisoblanadi.

Pedagogika oily o'quv yurtlarida xam uzuksiz ta'lim tizmining barcha bosqichlarida faoliyat olib borayotgan o'quv muassasalarida bo'lgani kabi ma'ruzalar nazariy bilimlarni bilishning asosiy shakli hisoblanadi.

Mutaxassislar fikriga ko'ra shaxsning o'z-o'zini boshqarishi ob'ektiv va sub'ektiv muhit talablariga moslashishi dastavval soda tug'ma instinktlar shartsiz reflekslar yordamida oddiy ta'sirlanish va taassurot tarzida namoyon bo'ladi. Yangi tug'ilgan chaqaloq o'z taraqqiyotining dastlabki davrlarida o'zligini anglay olmaydi, xatto bu jarayon yuzaga kelishi haqida mulohaza yuritish ham mumkin emas.

Talaba ulg'aygani sayin unda muayyan xususiyatlari holatlari orqali moddiy dunyoni tushunib boradi va o'z faoliyatining mazmun va mohiyatini anglab yetadi. Shu tariqa bolada o'ligini anglash davri boshlanadi.

psixologik bilimdonlik inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, undan o'z-o'zini anglash, nazorat qilish xususiyatlarining takomillashuviga xizmat qiladi. Pisixologlar tomonidan e'tirof etilishicha psixolog bilimlar bilan qurollanish. Shaxsni o'z-o'zini qo'lga olish, o'z-o'ziga buyruq berish, o'z-o'zini qayta tarbiyalash, o'z- o'zini nazorat qilish, o'z imkoniyatlarini chamalay olish va ulardan unumli foydalanish kabilarga o'rgatadi.

Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda, bizning nazarimizda talabalar psixologik bilimlarni bilib borishi maqsadga muvofiq.

TAKLIFLAR

Talabalarda ishonch tuyg`usini shakllantirish va mustaxkamlashda ta'lim - tarbiya jarayonida quyidagi holatlarga e'tibor qilishi zarur:

Birinchiidan, talabalar rivojining asosi hisoblangan omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muhiti omillari)

Ikkinchiidan, talabalarga ta'lluqli asosiy tavsiflar, uning ichki qonuniyatlari, rivojlanish bosqichi;

Uchinchiidan talabalarning o'zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta'sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi kabilar.

To'rtinchiidan, talabaning ishonch tuyg`usi maqsadga qaratilgan ijtimoiy foydali faoliyati prosessida hayotiy deb ataladigan mexanizmlari va ongli faoliyatning funksional sistemasi prosesslari yuzaga keladi. Ana shular tufayli talaba bilimlarni, ko'nikma va malakalarni, kishining sosial tajribalarini o'zlashtiribgina qolmay balki o'zining idroki, tafakkuri, xayoli, hissiyotlari va irodasini bir so'z bilan aytganda, voqyeali bo'lgan ongli munosabatini hamda o'z harakatlari va xulq-atvorining motivlarini tarkib toptiradi.

Beshinchiidan, talabaning barcha xususiyatlari, munosabatlari va hatti-harakatlari shaxsning hayotiy faoliyatida ma'lum rolni bajaruvchi va har biri murakkab qurilmadan iborat bo'lgan hamda shartli ravishda turtga o'zaro, mustahkam bog'langan funksional bosqichlarga birlashtiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. I.A. Karimov. “Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori”. Toshkent: Sharq nashriyat manbaa konserni. 1997.
2. I.A. Karimov. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. Toshkent. 2008.
3. I.A. Karimov. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni barataraf etish yo`llari va choralari. Toshkent. 2009.
4. I.A. Karimov. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisi. 2010 yil.
5. I.A. Karimov “Ozbekiston mustaqilikka erishish ostonasida”. Toshkent. 2011.
6. O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida”gi qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan). Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: O`zbekiston. 1997.
7. O`zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konserni. 1997.
8. Abdurasulov R. Psixologning kundalik kitobi. Jizzax – 2005
9. Adizova T.: Psixologik korreksion ishlar. T.2000-126b
10. Boboyev X., G’ofurov Z. O’zbekistonda siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy ta’limotlar taraqqiyoti. - T.: Yangi asr avlodi, 2001. - 141-144 b.
11. Davletshin M.G., To’ychiyeva S.M. Umumiy psixologiya, T.. 2002.-231s.
12. Vozrastnaya psixologiya: ot molodosti do starosti: Uchebnoye posobiye dlya studentov i prepodavateley ucheb.zaved /M.V Gamezo, V.S Gerasimova, G.G Gorelova, L.I Orlova.M.,1999.
13. Gromova O. N. Konfliktologiya. M.: “Izd-vo” 1993.
14. G`oziyev E.F. “Psixologiya”. Toshkent 1994.
15. Davletshin M.G. Obщaya psixologiya T. 2002.

16. Davletshin M.G. Hozirgi zamon maktabining o'qituvchisi psixologiyasi. –T.: «O'zbekiston» 1999.- 123b.
17. Davlyetshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pyedagogika psixologiya». O`quv myetodik qo`llanma TDPU. 2004.
18. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat. Ma'ruzalar matni. T, 2000.-198b.
19. Karimova V.M. Psixologiya. T.2004 y.
20. Raxmatullayev. M.A. Maktabda psixologik xizmatni tashkil etish. T.– 2001.
21. Psixologiya. Qisqacha izohli lug'at .Toshkent, 1998.-178b.
22. To`ychiyeva G.U., Asadova E. Yoshlar va konfliktlar yyechimi. Manual. -T.: 2008
23. Xasan B.I. Konstruktivnaya psixologiya konflikta. SPb., M. “Izd-vo” 2003.
24. Felshteyin D.I «O`smir davri taraqqiyoti». M.MGU, 1996 yil

Internet ma'lumotlari quyidagi saytlardan olinadi:

1. www.bilimdon.uz,
2. www.de.uz,
3. www.tatu.uz